

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

IQTISODIYOT FAKULTETI

YO`NALISHI: IQTISODIYOT

KAFEDRA:

“BOSHQARUV HISOBII VA MOLIYA”

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Kredit riski va uning minimallashtirish yollari

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajardi: 402guruh talabasi O.Rabbimov

Ilmiy rahbar: assistent B.Safarov

SAMARQAND - 2011

Mundarija

Kirish	3
1-Bob. Tijorat bankida kredit portfelini boshqarish muammolari.	6
1.1 Kredit siyosati	6
1.2 Tijorat banklari kredit portfeli va undan foydalanish darajasi	10
2-Bob. Kredit xatarlari va ularni boshqarish usullari	17
2.1 Bank xatarlar turlari	17
2.2 Kredit qaytarish imkoniyati va kafolati	20
2.3 Kredit xatarlarini taksimlash va qoplash	29
2.4 Kredit xatarini kamaytirishda sugurtalashni ahamiyati	38
3-Bob. Aksionerlik Tijorat “Turon- bank” Samarqand viloyati filialida kredit xatarini boshqarish.....	43
3.1 “Turon bank” va uning kredit siyosati	43
3.2 Kredit xatarlarini darajasini	45
3.3 Xatarni kamaytirish buyicha kuriladigan chora tadbirlar	57
Xulosa.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar	62
Ilova.....	63

Kirish

Bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda bank tizimidagi boshqaruv jarayonlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga bo'lgan talab yanada kuchaymoqda. Shu munosabat bilan bank tizimida boshqaruv jarayonlarini qayta ku'rib chiqish va takomillashtirish dolzarb mavzular qatoriga kiradi.

Bu holda mamlakatimiz Prezidenti tijorat banklar faoliyatini barqarorlashtirish va ularni mustaxkamlab borish tizimli yondashiladigan, chuqur nazariy va metodologik muammo ekanligini alohida ta'qidlaydilar.

Tijorat banklari faoliyatining risk omili bilan bevosita bog'ligligi bu boradagi me'yoriy xujjatlarni takomillashtirishga jiddiy e'tiborni qaratishni taqozo etmoqda. Mamlakatimiz tijorat banklari faoliyati samadorligiga risk omilining salbiy ta'sir ko'rsatishini e'tiborga olib, risklarni boshqarishda zamonaviy tizimlarini joriy etish borasida qator chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Xozirga qadar kredit riskini boshqarish va uning salbiy ta'sirini kamaytirish borasida uslubiy me'yorlar ishlab chqilmagan. Shu sababdan, O'zbekiston bank ishi amaliyotida kredit riskini tizimli baxolash, tahlil etish va uni minimallashtirish tizimini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Shundan kelib chiqib, mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida kredit riskining namoyon bo'lish shakllarini tahlil qilish va shu asosida ushbu riskni minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish mavzuning **dolzarbligini** belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida" va yangi taxrirda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" qabul qilingan qonunlar yuqori darajadagi bank tizimiga erishish, jamg'armalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, tijorat bnklarni xalqaro moliya bozoriga chiqishni hamda milliy valyutaning barqarorligini, aholi, korxonalar va xorijiy sarmoyadorlarning bank tizimiga yuqori darajadagi ishonchini, barqaror iqtisodiy usish va xalq farovonligini taminlashga qaratilgan bank tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilab berdi.

Bankning asosiy maqsadi aholiga xizmat kursatish va foyda olishdir. Bank uz faoliyati davomida xususiy tadbirkorlik, kichik va urta biznesni rivojlantirish maqsadida kreditlar beradi. Bu berilgan kreditlarning uz vaqtida qaytarilmasligi bankga kredit xatarini beradi.

Dissertatsiyaning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit riskini hisoblash va samarali boshqarish tizimini ishlab chiqish, kredit riskini aniqlash uslubiyotini takomillashtirish asosida tijorat banklarining samarali faoliyat ko‘rsatishiga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Dissertatsiya ishining maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- kredit riskini tasniflash va tavsifini ochib berish;
- kredit riskini baholash usullarini o‘rganish va ilg‘or xorij usullarini qo‘llash asosida uni takomillashtirish;
- mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida kredit riskining samarali boshqarish tizimini ishlab chiqish;
- bank faoliyatida kredit riski darajasini kamaytirish va oldini olishni takomillashtirishning yangi diversifikatsiya ko‘rsatkichini amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish;
- risklarni boshqarish xalqaro standartlari asosida kredit riskini boshqarishning yangi usuli, ya’ni nomutanosibliklarni boshqarish usulini amaliyotga qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berish;
- risklarni boshqarish milliy standartlari asosida kredit riskini bank riskining boshqa turlari bilan uzviy aloqadorligini ochib berish va bank barqarorligini ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti. Tadqiqot ob’ekti sifatida aksionerlik Tijorat “Turon- bank” Samarqand viloyati filiali olindi.

Tadqiqotning predmeti. Mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida kredit riskini minimallashtirish muammolari hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Dissertatsiyada tizimli yondoshuv, qiyosiy, taqqoslash, analiz va sintez, guruhlash, nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanish, moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblash usullari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishida respublikamiz va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari umumlashtirilib, bozor munosabatlari iqtisodiyotning barcha jabhalariga keng miqyosda kirib borayotgan hozirgi sharoitida kredit riskining uslubiy muammolari nazariy asoslanib, ularni qal etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ilmiy ishda kredit riskini boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosa va amaliy takliflar mamlakatimiz tijorat banklarida kredit riskini boshqarish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda va oliy o'quv yurtlarida fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Mazkur bitiruv ishi kredit xatarini boshqarish muammolarni urganishga qaratilgan. Unga kredit xatari darajasining yuqori bulishi kupgina tijorat banklarning bankrot bulishiga olib kelishi haqida fikr yuritiladi.

Bitiruv ishi uch bobdan iborat bulib, I-bobda bank olib borayotgan kredit siyosati, uning aktivlari, kredit portfelini tugri tashkil etish, undan foydalanish darajasi, kredit portfelini boshqarish kabi masalalar bayon qilingan.

II-bobda esa bankda uchraydigan xatarlar turlari, kredit xatari, uning kelib chiqish sabablari, kredit xatarini kamaytirishda sugurtalashning qansay ahamiyatga ega ekanligi, kredit xatarini boshqarish usullari haqida fikr yuritilgan.

Ishning so'nggi qismida bajarilgan bitiruv ishi natijalariga asoslangan xulosa keltirilgan.

I-BOB. TIJORAT BANKIDA KREDIT PORTFELI

MENEJMENTI MUAMMOLARI

1.1. Kredit siyosati

Bank kredit siyosati- kredit jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bankraxbariyati tomonidan qabul qilinidigan choralar va uslsblarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kredit prtfelini samarali boshqarishga doir kursatmalar bilan ta'minlovchi xujjatdir.


Tijorat banki kredit siyosati bank kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Xar bir bank uz kredit siyosatini ishlab chiqishi va amalgam joriy etishi lozim. Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank kengashi va boshqaruvi azolari, bankning boshqa mansabdor shaxslariga yuklatiladi.

Bangda alohida xujjat kurinishida bank Kengashi tomonidan tasiqlangan kredit siyosati mavjudligi kreditlarni berishga oqilana yondashishning kursatkichi hisoblanadi.


Xar qanday kredit siyosati maqsadi odatda quyidagilardan iborat buladi: uzoq muddatli investitsiyalardan aksiyadorlarga yuqori daromad kelishini ta'minlash, likvidlikni saqlab turish, tavakkalchilikni diversifikatsiya qilish, siyosat va tadbirlar birligini kafolatlash, qonunlaar va me'yoriy xujjatlarga rioya qilish, xududning kredinlarga bulgan ehtiyojini qondirish.

Kreit siyosati bank tomonidan beriladigan kreditlar toifasi va turlarini aniqlashi va belgilashi lozim.

Kreditlarni muddat bo'yicha tulashni klassifikatsiyalash



Kreditlarni sifat buyicha klassifikatsilash



Kredit siyosati kreditlashning turli kursatkichlari (kredit turlari, iqtisodiyot tarmoqlari, geografik hudular va boshqalar) buyicha kreditlarning tuplaninshi darajasini aniqlash va uni monitirining qilish tugrisida talablarni uz ichiga olishi zarur.

Bank kredin siyosati garov kreditlashning boskichida ham, keyingi monitorining bosqichlarida ham jismoniy va yuridik shaxslarninig moliyaviy hisobotlariga nisbatan quyiladigan talabrni uz ichiga olishi kerak. Moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvlaridan utkazish, naqt pul oqimi va boshqa ma'lumotlar buyicha hisobotlarni taqdim etish yuzasidan quyiladigan talablar aniq ifodalanishi zarur.

Bank kredit siyosati garov kreditlashning uni berish vaqtidayoq kreditni tulash manbasi (naqt pul yoki davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (xazina veksellari) bilan ta'minlangan kreditlar bundan mustasno) xisoblangan yagona asosi bulmasligi belgilab quyilishi zarur.

Siyosat garovga olingan mulk turiga qarab garov mavzuiga nisbatan quyiladigan talablar va kreditning garov qiymatiga nisbatan uz ichigf olishi kerak. Mazkur banda garov predmeti sinchiklab baholanishi va uning bozor qiymati uni sotish lozim bulgan paytda yuzaga kelishi mumkin bulgan zarar urnini qoplashi lozimligi aniq yoritilishi zarur.

Xujjatda garov predmeti mustaqil baholovchi va ichki bank baholovchisi tomonidan baholanadigan holatlar kursatib utilishi kerak.

Kredit siyosati kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim. Kredit bulimida ishlaydigan xodimlar kredit portfelidagi barcha ma'lum bulgan slabiy uzgarishkar tugrisida raxbariyatga xabar berishilari kerak. Qarzdor yok garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yuqotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Siyosat qarzlarni qaytarishga doir ischil bosqichma-bosqich chora-tadbirlar qurilishni talab qilishi kerak. Raxbariyat Markaziy Bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisodan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosati bank xizmatlari bulinmalari tomonidan bank boshqaruvi va kengashiga kreditlashning turli jihatlari buyicha taqdim etiladigan hamda kredit sifati va kredit portfelini boshqarish bilan bogliq bulgan boshqa ma'lumotlarni uz ichida olgan hisobotkar turi va davriligini belgilashi lozim.

1.2 Tijorat banklari kredit portfeli va undan foydalanish darajasi

Iqtisodiyotimizning yangilanishi bank tizimi va banklar faoliyatining bozor munosabatlariga mos uzgarishlariga, iqtisodiyot, bank tizimiga taallukli yangi tushunchalar, operatsiyalarning yuzaga kelishiga olib keldi. Shunday tushunchalardan biri- tijorat banklari kredit portfeli tushunchasidir. Ma'lumki, bozor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarning kredit siyosatiga, ularning kredit portfeliga va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta etibor beiladi. Chunki kredit portfelini tugri tashkil kilinishini banklarning samarali faoliyat kursatilayotganligidan dalolat beradi. Kredit operatsiyalarni olib borishda yol quyilgan kamchiliklar banklar daromadonong kamayishiga, ba'zi hollarda ularning sinib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, banklarning kredit portfeli va ularni sifatini nazorat qilib boorish, uni oqilona boshqarish kredit xatarlarini kamaynirishga asos bulishi mumkin.

Banklarning kredit portfeli, uning holati tugrisida fikr bildirishdan oldin, dastlab kredit portfelining iqtisodiy mohiyatini tushunib olishimiz lozim. Banklarning kredit portfeli iqtisodiy tushunchalarimiz safiga yaqinda kelib qushilgan tushuncha sanaladi. Berilgan kreditlarning banklarga uz vaqtida qaytarilishikreditlash jarayoninig qay darjada tashkil qilinishiga, kredit berish va qaytarilishining muddatlariga rioya qilinishiga, ssudalar, ayniqsa, muddati utgan yoki uzaytirilgankreditlar buyicha hisob-kitob operatsiyalarning tugri olib borilishiga, ssudalar buyicha zaralarni qoplash rezrvi miqdoriga, banklraro kredit va markazlashtirilgan kreditlar biyicha operatsiyarning qonunligiga va

kreditlarning tugri turkumlash buyicha banklarda utkaziladigan tahliliy operatsiyalarning sifatligiga va boshqa omillarga bogliq buladi.

Banklar tomonidan bajaraladigan barcha kredit operatsiyalari ularning kredit portfellida uz ifodasini topishi, har bir bank kredit portfelining sifatligiga erishishi va kreditlarning uz vaqtida qaytib kelishiga asos bilishi mumkin.

Kredit portfeliga banklar aktiv operatsiyarning yigindisi, deb qarash ham unchalik tugri emas. Chunki banklarning aktiv operatsiyalari keng qamrovli jarayon bulib, u banklarning uz kapitali va jalb qilingan mablaglarini daromad olish maqsadida joylashtirish bilan bogliq barcha operatsiyalarni uz ichiga oladi.

Shuningdek, bank tomonidan berilgan kreditlar muddatning belgilab quyilishi va unga rioya qilinishini ham kredit portfelini sifatini aniqlashga zarur omil bulishi mumkin. Kreditlarning belgilangan muddatda qaytarilishi:

1. Har bir bank kredit berish jarayoninig tashkil qilinish darajasiga;
2. Ssudalar berilishi va qaytarilishi tartibiga amal qilinishi darajasiga;
3. Ssudalar va ayniqsa, muddati uzaytirilgan va muddati utgan ssudalarni hisobiga olish jarayonining tugri aks ettirilishiga;
4. Ssudalarning tygri tasniflanishiga;
5. Ssudalar buyicha ehtimoliy yuqotishlarga ajratilgan zaharalar miqdori va boshqa sabalarga bogliq.

Kredit portfelining mohiyatini ochib berishda quyidagi omillarni inbatga olish zarur. Bular:

1. Kreditlar buyicha xatar darjasi;
2. Kredit berish obyektleri;
3. Kreditdan fjdalanish muddati;
4. Kreditning halmi va ta'minlanligi;
5. Mijozning mo'liyaviy holati va boshq.

Shularni inobatga olgan holda, kredit portfeliga quyidagicha tariff berish mumkin: "Banklarning kredit portfeli- bu turli darajadagi xatarlarga asoslangan,

muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar buyicha bank talablarining yigindisidir.

Mazkur tarif kredit portfelining mohiyatini tugri tushunish va tahlil qilishga tordam beradi. Chunki unda:

1. Bberilgan kreditlar buyicha xatarlar darajasini ifodalovchi mezonlar;
2. Bankning barcha bergan kreditlar buyicha talablariyigindisini hisobga olish zarurligi;
3. Kreditlarning asosiy mezonlari buyicha turkumlash lozimligi va boshqalar uz aksini topgan.

Kredit portfeli faqat normal kreditlarni emas, balki muddati utgan kreditlarni ham uz ichiga oladi. Bu omillarni e'tiborga olish tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirishda, ularning faoliyatining tucri tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Kredit xatarlarining darjasi xoriliy banklar va bizning banklarimiz amaliyotida ham bayklar kredit portfelini holatini ifodalovchi asosiy me'zon hisoblanadi. Ayanan shu krusarkichning darjasuga qarab, kredit portfelining sifati aniqlanadi.

Banklar kredit portfelini baholash va tahlil qilish bank menejerkariga ssuda operatsiyalarini smarali boshqarishga imkon beradi.

Banklar kredit portfelini tashkil qilishning asosiy maqsadi bankning kredit siyosati sohasidagi uz strategiyasini ishlab chiqarishi, kreditlar sifatini tahlil qilish va uni yaxshilash buyicha choralar ishlab chiqish dir. Buning uchun bank berilgan kreditlarning belglangan limitlariga mos kelishi, kredit resurslardan foydalanish samaradorligi, kredit xatarlarini kamaytirish va kreditlar sifatini yaxshilash kabi kursatkichlarning holatlarini tekshirib boorish zarur.

Tijorat banklari kredit portfelining barqarorligi va sifatligini taminlashuchun kredilash kredining muddatligi, unug uz vaqtida qaytarilishi va tulovliliga rioya qilish lozim.

Kredit portfelini doimiy nazorat qilish tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish garovidir. Ularni kredit portfelini oqilona boshqarish esa

kredit xatarlarini kamaytirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuni qayd qilish lozimki, banklarning moliyaviy hisobotlari va boshqa qushimcha malumotlari ulardagi aktivlar sifatini real holatini, shuningdek , kredit portfeli mavjud buyicha muammolarni bank daromadiga tasirini aks ettirishi lozim. Bunday mlumotlarning yuqligi bank aksiyadirlari yoki Markaziy Bank va boshqa manfaatdor tomonlarni chalqitish barobarida bankning uziga ham xatarlarni boshqarish jarayonida zarar etkazishi mumkin. Mumoli kreditlar banklardagi minimal darajaga etkezishga tusiqli bulib turadi. Kredit portfeli sifati haqida obyektiv muammolarning yuqligi bank rahbariyatining bankning kredit siyosatiga zarur uzgartirishlar kirishiga ham halakit beradi.

Banklar kredit portfelini tahlil qilishda:

1. Kredit xatarlari darajasini inobatga olgan holda kreditlarning sifatini baholash mezonlarini tanlash;
2. Ular asosida kreditning sifatini baholash usullarini ishlab chiqish, ssudalarning asosiy guruhlarining ularning foiz stavkalari asosida aniqlash;
3. Kreditlarni tansiflash;
4. Har bir kredit guruhi buyicha xatar foizi darjasini aniqlash;
5. Har bir kredit va bank buyicha kredit xatarini absolyut summasini aniqlash;
6. Tegishli malumotlar asosida kreditlar buyicha zarakarni qoplash uchun etarli rezrv summasini aniqlash;
7. Koeffitsenlar buyicha kredit portfeliga baho berish;
8. Kredit portfelining tarkibini yaxshilash buyicha chora- tadbirlar ishlab chiqish kabilarni urganish lozim buladi.

Shunday qilib, tijorat banklari kredit portfeli turli kredit xatarlariga asoslangan, muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kredit miqyosidagi, bank talabkarining yigindisi bulib, uni samralari boshqarish kredit xatarini va umuman, bank xatarlarini kamaytirishni muhim omillari hisoblanadi.

Ma'lumki hozirgi davrda tijorat banki kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari:

1. Kredit xatari darajasiga ta'sir kursatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
2. Ssudalarni xatar guruhlari buyicha tansiflash;
3. Kredit portfelini kredit xatarlari, mijozlar tarkibi va ssudalar tizimlari buyichamaqbullashtirish;
4. Qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darjasini va uning moliyazviy ahvolini kredit xatarini bashorat qilish maqsadlarida uzgartish imkoniyatlarini aniqlash;
5. Muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
6. Yaratilayotgan zahiralarini etarliligini baholash va uni uz vaqtida tugrilab boorish;
7. kredit quyilmalarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidliligini va daromadliligini ta'minlash;
8. Bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni utkazilgan kredit portfelining sifat tahliliga asoslangan holda tugrilab borishdan iborat.

Kredit siyosatining asosiy maqsadlari:

1. Kredinin turlari shuningdek, bank kreditini kimga va qanday shartlar asosida berishini aniqlab olish;
2. Kreditlar, depozitlar, boshqa majburiyatlar va bankning uz sarmoyasi urtasidagi eng maqbul munisidlikni ushlab turishdan iborat.

Kredit siyosatini ishlab chiqish bankning iqtisoddagi murakkab va uzg'rib turuvchi sharoitlariga moslashishi uchun juda ham muhim. Odatda, kredit siyosati bankning kredit bulimi xodimlari uchun uslubiy kursatmalarga ega bulgan qullanma shaklida tuzib chiqiladi. Kredit siyosati buyicha qullanma:

- bank tomonidan beriladigan ssudalarning turlari va ular haqida aniq terminologik tushunchalari;
- bankning kredit xatarlari sohasidagi strategiyasini, ularning chegaralari hamda boshqaruv tamoyillarini;
- kredit berish tamoyinlarini;
- kredit ishlari uchun javobgar bulgan iqtisodchilar yoki kredit qumitalarning tizimlarini va majburiyatlarini;

- kreditga oit hujjatlarni uz ichiga oladi.

Kredit jarayonini tashkil etish tartiblari quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Kredit olish uchun tushgan arizani qabul qilish va uni urganib chiqish;
2. Kreditni tahlil qilish jarayoni, boshqa banklar hamda etkazib beruvchilar bilan kredit haqida axborot almashuv;
3. kredit shartnomasini tayyorlash va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish;
4. kredit berish;
5. kreditni nazorat qilish;
6. Kreditni qoplash va kredit ishini yopish.

Xatarni boshqarish siyosatiga quyidagilar kiradi: xatar strategiyasi (boshqarish, turi, hajmi); siyosat doiralari (ichki hujjatlar) va baholash kunikmalari.

Xatarning quyidagi: xatarsiz, yul quyiladigan xatar, eng yuqori xatr, yul quyilmaydigan xatar chegaralarini kursatib berish mumkin.

Xatarni boshqarish tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Xatar chegaralarini aniqlash va baholash (zarar kelirishi mumkin bulgan manbalarni yoki xatarli xolatlarni aniqlash; xatarni ulchash; kelajakda ruy berishi mumkin berishi bukgan xatarni bashorat qilish);
2. Xatarlar ustidan nazorat urnatish (bank xizmatlari va barcha bulinmalari buyicha xatarni nazorat qilishni muvofiqlashtirish; xatarni kamaytirishni iqtisodiy ragbatlantirish; monitorining va xatarni boshqarish tartiblarini samaradorligini oshirish);
3. Xatarni moliyalash(mavjud bulgan zahiradan foydalanish; “favqulotda holatlar” strategiyasini saqlash; bankning xizmatlari va barcha tizimlari buyicha xatarlarni moliyalashga ketdigan xarajatlari uchun mablag ajratishi);
4. menejment xatarlarini boshqarish (rahbarlarni ma'sulligi va majburiyatlari; xatarni boshqarish siyosati va tizilishining aniqligi; maqsad va vazifalar; xatarlarni nazorat qilish siyosatida uzaro bank aloqalari).

Xatarlarni boshqarishda beshta bosqichni ajratib kursatish lozim: bashprat qilish; tahlil, tartibga solish, kuzatib boorish va nazorat qilish.

Kredit xatari sohasida kredit menejmenti:

1. Xatarlarni yetarlicha qoplash va taqsimlashni;
2. Vazifalarni aniq belgilab olishni;
3. Vakolatlar taqsimlanishining aniq tizimini;
4. Sifatli kredit xujjatlarini;
5. Xatarlarni sezgirlik bilan kuzutib turishini;
6. Boshqaruvning tiliq axborot va nazorat tizimini;
7. Kreditlarning qaytarilmaslik mummolari bilan shugullanchuvchi xizmat ishining samaradorligini kuzda titadi.

II-BOB. KREDIT XATARLARI VA UNI BOSHQARISH USULLARI.

2.1. Bank xatarlari turlari

Bank tizimi – har qanday mamlakatning eng muhim va aynishu chogda xatarga kup berilgan tuzilmaviy unsure hisoblanadi. Banklar qator muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi: jamgarmalarni mobillashtiradi, vositachilik operatsiyalarni amalgam oshiradi, kreditlarni taqsimlaydi, qarz oluvchilar tomonidan mo'riya intizomiga rioya etilishini nazorat qiladi. Hatto iqtisodiyoti yuksak rivojlangan davlatlarga ham banklar moliya- iqtisodiy faollik markazi hamda pul-kredit siyosatini utkazish vositasi bulib xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda, banklar moliya tizimi samarali ishlashini ta'min laydigan yagono muassa bilib qoladi.

Bank tizimi faoliyatini yaxshi tushungan hukumatlar uning oqsashiga yul quymaydi va tizimli jihatlardan kelib chiqib, banklar tulaovlarga noqobil bulib qolgan taqdirda vaziatga aralashadi. Bu samarali bulishi uchun ular ishini nazorat qiladigan organlar, muayyan bank muassalari va umuman bank sektori duch kelishi mumkin bulgan barcha turdagi xatarlarni aniqlash va oldini olish usullariga ega bulishlari shart. Bankchilar bu usilga ega bulishlari va uzgaruvchan bozor sharoitida ular faoliyati bilan bogliq barcha xatarlarni oldindan bishlari katta ahamiyat kasb etadi. Banklar mijozlari, aktivlari va majburiyatlari muntazam tahlil qilinishi va baholanishi kerak. Bu yrda banklar uz mijozlarini- depozitorlar va kreditorlarni ikki tomonlama xatarga qiyadi. Boshqacha aytganda, bankni bir vaqtni uzida ham qarz oluvchi, ham kreditor sifatida qabul qlish zarur.

Bank faoliyati ikki asosiy xatar turi- tizimli va tizimsiz xatarga duch kelishi mumkin. Ikkalasi ham uz tahlil etish va oldini olish usullariga ega.

Bank tizimi xatarlari umumiy iqtisodiy sharoinlar va makroiqtisodiy siyosat hossalaridan kelib chiqadi. Bank tizimining turgun rivojlanishi umuman iqtisodiyotning qanday holatda ekanligiga bogliq. Shuning uchun makroiqtisodiy,

avvalam bor monetary siyosat va bank xatarlarini samarali boshqarish tizimli xatarlarini kamaytirish va oldini olish imkonini beradi.

Bank tizimsiz xatarlari uz navbatida bank operatsiyalari va tadbirkorlik xatarlarini uz ichiga oladi.

Bank operatsiyalari bilan bogliq xtarlar ikki guruh- tulovga noqobillik va llikvidlilik xatariga bulinadi.

Birinchi guruhda quyidagilar kiradi:

1. Kredit riski- qarz oluvchi uz qarzini qaytarmasligi oqibatida zarar kurulishidir. Buning manbai faqat kreditlar emas, balki qimmatli qogozlar, jumladan veksellar, akseptlar hamda kafolat va kafillik singari balansdan tashqari vositalar bulishi mumkin. Bank mablaglari uning aktivlari tegishli sarmoya ulishi bilan ta'minlanganligini anglatadi;
2. Foiz riski- bu foiz xarajatkari va foiz stavkalari tebranishi bilan bank daromadlari mos kelmasligidir. Bank bunday uzgarishlar oqibatida kurishi mumkin bulgan zararlar foiz marjasining keskin tyshishi, aktivlar, passivlar va balansdan tashqari majburiyatlari pasayishida kurinadi;
3. Bozor riski- nisbiy bozor narxlari darajasi keskin uzgarishi oqibatda bank aktivlari haqiqiy qiymatini pasayishidir. Bu bozor narxlari nomaqbul uzgarishi oqibatida ehtimoliy zarar kurulishi tufayli ruy beradi. Bunday zaralarni hisobga olish maqsadida aktivlarga quilmalarni buxgalteriyada hisobga olish qoidalariga uzgarishlar kiritilgan. Ularga muvofiq banklar ikki qiymat- xarid qilish va bozor narxlarining eng kamida hisob yuritishadi. Bozor narxi xarid qiymatidan past bulsa, banklar altivlarning pasayishi summasiga kamaymasligi uchun rezervlar yaratishga majbur. Rezervlar ehtimoliy zararlar sifatida kuruladigan bank xarajatlari hisobiga yaratiladi.;
4. Valyuta – xatari valyuta kursining bazi qarz oluvchilar moliya holatini yomonlashtiradigan tomonda uzgariz natijasida kuruladigan zararlardir. Bu yomon kreditlar miqdorini kupaytiradi. Banklar bunday ta'sirni kamaytirish boshqarish usullari samaradorligiga bogliq. Ular valyuta xatarini bevosita

vabilvosita ta'sirinichtklashi kerak. Ayirboshlash kursi nobarqarorligi va uning yuqori darajada aniq emasligi bank operatsiyalariga salbiy tasir kursatadi. Moliya vositachaligida dollarlashtirishni kengaytirish valyuta xatarini kamaytiradi. Chunki mahalliy valyutaning qadrsizlanishi qarz oluvchilarga horijiy valyutadagi majburiyatlarini qaytarish qobiliyatini cheklaydi. Kuplab ayrboshlash kerslari siyosati horikiy investorlarda norozilik tugdiradi. Bu sarmoya oqib kelishini kamaytirib, uning mamlakatdan tashqarida chiqib ketishida turtki bulishi mumkin;

5. Investitsiya xatari- qimmatli qogoz emitinti moliya holati yomonlashishi oqibatida investitsiyalar portfeli yoki quyilgan mablaglarni yuqotish xatari. Respubligada faol oshirayotgan davlat tasarrufidan chiqarish va hususiylashtirish jarayonida investitsiya operatsiyalar i auniqsa keng terqladi. Ular banklar aktivlarini diversifikatsiyalash va ulrga qushimcha foyda olish imkonini beradi, butun iqtisodiyotni oziqlantiradi.
6. Likvidlik xatari- bankning uz majburiyatlari buyicha uz vaqtida pul tulashga qobil emasligi bilan bogliq bulib, buning oqibatida majburiyatlar oshgani ham, qisqa muddatlarda maqbul narxlarda aktivlarni sotishda ham mablag ilish imkoni bulmaganligi sabali zarar kuriladi.

Bank operatsiyalari bilan bogliq xatarlarga, shuningdek jamlash xatarini ham kiritish kerak. Bank aholida korxonolar yoki tarmoqlarni kredishlashda iqtisoslashgan bulsa, yuqori keltirilgan xatarlar kuchliroq buladi.

Nihoyat, banklar, bozorning boshqa qatnashchilari singari tadbirkorlik xatariga duch kelishi mumkin. Aslida u banklarning uzi tomonidan nazorat qilishi kerak. Shuday bulsa-da, Markarziy bank ham nazorat qiluvchi organ sifatida tijorat banklarining tadbirkorlik xatarini kamaytirishga yunaltirilgan siyosatni amalgam oshiradi. Buning uchun ular faoliyati asosiy jihatlarini muntazam monitoeining qiladi, tahlil etadi va baholaydi.

Bozor iqtisodiyotida bank xatarlari oddiy hol. Biroq ular tijorat banklarininguzi, bank nazorati organlari umumiy kuchi bilan ilji boricha kamaytirishi zarur.

Bugun banklar ostidan nazorat qilish sifatini oshirish, ular xatarini boshqarish, faoliyatunu boshqarish uchun yangi bozor vosiytalarini joriy qilish Uzbekiston oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqayotganda banklar muammolari qanchalik jiddiyligi hisobga olinishi, tedishli vazifalarni kurib chiqib va ularni hal qilish uchun vositalar tipilishi shart.

Kuplab xorijiy mamlakatlar matkaziy banklari bank tizimi faoliyat yuritishini yaxshilash maqsadida korxonalar moliyaviy holatini diqqat bilan urganadi, bank xatarlari buyicha markazlashtirilgan xizmatlar tashkil etadi va korxonalar balanslari buyicha axborot bazasini yaratadi(Beigliya Milliy banki, Frasiya banki, Germaniya federal banki, Italiya banki, Ispaniya banki). Bular Uzbekistonda ha shunday axborot xizmatini yaratish,kredit xatarini pasaytirish va notulovlar masmlasini yuqotish imkonini beradi.

2.2. Kreditni qaytarish imkonoyati va kafolati

Malumki, Uzbekiston banklarida mamlakat korxonolariga berilgan kreditlarning qaytarilmayotgani bilan bogliq muammo mavjud. Qarzdorlarning olgan kreditlarini qaytarish imkoninni aniq baholash bank ishidagi asosiy muammolardan biri bulib turibdi. Kredit olish uchun buyurtma bergan korxonalarning ishonchi aniqlashning qator uaullari bor. Ulardan eng soddasi qarzdorni ahvolini uning kredit tarixini urganish buyicha aniqlash bulsa, eng murakkabi- korxona faoliyatini tula-tukis moliyaviy tahlil qilish, u taklif qilayotgan investitsion loyihaning istiqboldagi imkoniyatlarini urganib chiqishdir.

Uzbekistonda Respublika Markaziy banki, “Konsauditinform” agentligi, “Reyting –Finans” kompaniyasi taqdim etgan kredit oluvchilarni baholash usullari keng qullanadi.

Banklararo “Axborot –reyting” kompaniyasi Uzbekiston banklari Assotsiyatsiyasi tomonidan 1996 yil sentyabrida tuzilgan. U tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash yagono tizimini ishlab chiquvchi va ular reytingini muntazam kuzatib boruvchi agentlik sifatida tashkil etilgan.

“Axborot-Reyting” kompaniyasi 1997 yildan boshlab har chorakda respublikamiz tijorat banklari reytingi bahosini utkazib kelmoqda.

Kredit reytingi kredit berish va unga foiz stavkasi belgilash uchun qaror qabul qilish sifatida xizmat qiladi.

Kredit qaytarish imkoniyatlari reytingi bahosi korxona faoliyatini boshqarishni baholash va undagi mavjud muammolarni oshkora hal qilish imkonini beradi.

Kredit qaytarish imkoniyatlari faoliyat yuritilayotgan subyekt moliyaviy ahvolini baholash, qarzlarni va majburiyatlarni uz vaqtida tula qaytarishda asos buladi.

Korxonalar faoliyatini aks ettiruvchi, ularning kredit qaytarish imkoniyatlarini bildiruvchi kupgina moliyaviy koeffitsentlar Banklararo “Axborot-Reyting” reyting kompaniyasi metodikasi buyicha quydagilar eng muhim kursatkichlar sifatida umumlashtiriladi:

F1-idhlab chiqarish faoliyati kulamdorligi. U yakuniy koeffitsenlarga asoslangan buladi. Bu: hususiy mablaglar manbasi, zaxira va sarflar, soliq tulagungacha bulgan foyda, sotilgan mahsulotlarning tan tarxi.

F2- umumiy moliyaviu tavsifnoma (rentabellik) korxona ishlab chiqarish samaradorligini, foyda va uz aktivlardan foydalanish imkoniyatini baholaydi. U un sakkizta moliyaviy koeffitsentga asoslanadi: jami mulkning rentabellik koeffitsenti, hususiy mablaglar manba'lari, umumiy capital, uzoq muddatli aktivlar, aktivlarni tavsiflovchi koeffitsenlar (aktivlar aylanishi, zaxairalar aylanishi, aylanma mablaglar, aylanish davri); xujalik faoliyati rentabellik koeffitsenti(foyda yalpi marjasi, sotish rentabelligi, aktivlar daromadi, vositalar narxi balansi koeffitsenti va mahsulot birligiga sarflangan chiqim); pul oqimi

hsakllanishi samaradorligi koefitsanti (foyda sof marjasi, aktivlar sof daromadi, kaptalning sof daromadi, kutilayotgan daromat qoplamasi, amortizatsiya uchun qoldirish); kompaniyaning umumiy qoplamasi, mablaglar aylanishi koefitsenti.

F3- tulashga qodirlik(likvidlik)- korxonani uz majburiyatlarini bajaraa olish imkoniyati. U ettita moliyaviy mezonlarga asoslanadi: absolyut va qisqa likvidlik koefitsenti, qoplamaning umumiy koefitdenti, debitorlik va kreditorlik qarzlari tulash davri.

F4- mablag bilan taminlangan yoki iqtisodiy barqarorlik kreditga olingan va mablaglari tizimini shakllantirish bilan bogliq tavakkallar darajasini aniqlash. U uz va kredit mablaglar koefitsentiga, vositalar narxidagi va uzoq muddatli kreditlar solishtirma hajmiga, passivlarda kreditorlik qarzlari ulushiga, qarzlari nisbati va sotuv hajmiga asoslanadi.

Bu turt kursatkichning har biri mo'liyaviy koefitsenlarga doir unlab katta hajmdagi axborotlarni eng maqbul tarzda ixcham shaklda ifoda qiladi. E'tibor qilish lozim-ki, katta hajmadagi va nisbiy koefitsentlar kompleks kursatkichlarning yakuniy formulasiga kiritiladi. Shundan sung turta kompleks kursatkichlari umumlashtirilib, yakuniy baho- F "Korxonaning kredit qaytarish yakuniy reytingi" chiqariladi.

Korxona holatini tavsiflovchi moliyaviy koefitsenlar miqdori va ularga asoslanib chiqarilgan kursatkichlar soni uzgarishi mumkin.

Tasdiqlash joizki, salmoqdor koefitsenlar miqdori uzgarishi mumkin. Ular tahlil qilinayotgan korxonalar tarmoqlarning urganilayotgan davrdagi holatidan kelib chiqadi. Shuni etiborga olish lozim-ki, har koefitsent va kursatkich miqdorining yuqori yoki pastligi korxonaning qaysi tarmoqqa tegishili ekanligiga bogliq. Koefitsenlar chegarasi vaqt utishi bilan uzgarishi mumkin.

F1,F2,F3,F4 va F tijorat reytingi umumlashtiruvchi kursatkichlari "me'yoriy foiz taqsimoti" usuli yordamida olingan ballari ifoda qilinadi.

Korxona moliyaviy bahosi ballarda hisoblansa 100 maksimal, 0 – minimal ball buladi.

Ayrim korxonalarining moliyaviy xolatini va undagi uzgarishlarni aniqroq tasavvur qilish uchun “ballar” bilan bir qatorda, kursatkichlarni raqamlarda ifoda etgan “sinflar” ham qullaniladi:

Kompleks kursatkichlar”sinfni” ifodalovchi raqmga yuqoridagi indeks(“+” yoki “-“) qudhiladi: “+” kompleks kursatkichning tahlil qilayotgan davrdagi usishini; “-“ esa uni kamayishini bildiradi. Indeks kursatilmasa kursatkich sinfi uzgarmagan buladi.

Korxonalar kredit reytingining quydagi kategoriyalari klassifikatsiya joriy qilinadi:

- 1- Kategoriya (81-100 ball). Bunday korxonalar uz majburiyatlarini tulashga yuksak darajada qodir.
- 2- Kategoriya (61-80 ball). Bunday korxonalar uz moliyaviy majburiyatlarini tulashga yetarli darajada qodir.
- 3- Kategoriya (42-60). Bunday korxonalar uz majburiyatlarini tulash imkoniga va ular yaqin caqt ichida xatardan uzoqda turadi, biroq tijorat, moliya, iqtisod va boshqa vaziatlar bilan bogliq noqulay uzgarishlar ruy berganida barqarorligini saqlaymasligi mumkin. Uzoq muddatli kreditni tulay olmaslik xatari mavjud.
- 4- Kategoriya(21-40). Bunday korxonalar kreditlarini qayarish xatar ostida tiradi, ularni uz moliyaviy majburiyatlarini bajarishi kup jihatdan muvaffaqiyatli tijorat, moliya, iqtisodiy va boshqa sharoitlarga bogliq buladi. Kreditni qaytara olmaslik ularda doimo havf solib turadi.
- 5- Kategoriya(0-20). Bunday korxonalar qarzlarini qaytarish imkoniyatiga ega emas. Korxonaning sifatli indeksini e’tiborga olgan holda, uning kredit reytingini aniqlash mumkin. Bu tahlil qiluvchilarning kasb malakasi darajasi va mahoratiga bogliq. Ular avvaldan tayyorlanfan shakllardan foydalanmasliklari lozim. Indeks sifatli -5dan +5gacha bulgan baholarda baholanadi. Agar korxonaning bir qancha davrdagi moliyaviy iqtisodiy kursatkichlari tahlil qilingan bulsa yakuniy baho chiqarilgan usish (dinamikasi) va taxmin e’tiborga olinadi. Taxmin qaysi yunalish buyicha qaysi davrda

uzgarish ehtimoli borligini bildiradi. Quydagi varianlar bulishi mumkin: “Reyting kutarilishi”, “Reyting tushishi”, “Aniqrogi reytingda uzgarishlar bulmaydi”.

Korxona tartib raqami	Reyting bahosi					Qarz qaytarishga qodirlik toifasi
	F	F1	F2	F3	F4	
1	3-	10	1-	2-	5+	4
2	8+	9	6+	7+	9+	1
3	2	10+	4+	1	1-	5
4	8	8	8-	7-	7-	2
5	8	7	7	7	8	1
6	6	8+	6	6+	6	2
7	1-	5-	0	1-	6-	5
8	1-	6	3	2-	0	5
9	1-	1	0	6	5-	5
10	5+	7	4	5+	6+	3
11	6-	3	4-	6-	7	3
12	6-	4-	5-	7+	4-	3
13	9+	8+	4-	10+	2-	1
14	3+	9	4	2+	2-	4

Mazkur iqtisodiy tahlil metodining ustuvorligi uning korxona mo'iyaviy holatining yakkol kyrsatishidir. Kursatkichlar kompleksi sinfi kurinishda ifoda qilingan raqmlardagi oddiylik va aniqlik yuqori axborotliylilk va obyektivlilikni ta'minlaydi. Bu bir vaqtning uzida bir necha muhim parametrlarga doir baholarni kursatib beradi.

Kompaniya tomonidan tahlil qilinayotgan ayrim korxonalar faoliyati mazkur metodika asosida urganilganda reyting ballari quyidagicha buladi (korxonalar nomlari tushirib qoldirildi):

Masalan: 14- korxona 3+, 9, 4, 2, 2- baholariga ega va kredit qaytarishga qodirligi jihatidan ular turta kategoriyaga mansub. Tastlabgi raqam (3+) yakuniy reytingning F sinfini, 3 tahlil qolinayotgan davrda erishilgan natijalarni bildiradi. Shunda ma'lum buladiki, “F1 ishlab chiqarish faoliyati qulamdorligi”

kursatkichlari va “F2 yalpi moliyaviy tavsifnoma” (9 va 4 raqamlari) bu davrda uzgarishsiz qolgan. Korxonaning “F3- kredit qaytarish imkoniyatlari” tahlil qilinayotgan davrda uagan (2+) bulsa, “F4 vositalar bilan taminlanganlik” darajasi pasaygan (2-). Korxonalarning qarzini qaytarishga qodirligi buyicha ishonchli reyting baholariga erishish va ular mo;iyaviy ahvolini taxminlash uchun tahlil qilinayotgan korxonalarning bir necha muddat (oylar, choraklar, yillar) dagi holati buyicha tuliq va aniq moliyviy hisobot materiallari zarur. Ulardan tashqari, hududlar va tarmoqlar buyicha ham Uzbekistondagi barcha korxonalar buyicha ma’lumot bazasi yaratishi zarur. Unda har bir tarmoq buyicha korxonalarning reyting bahosi, tarmoq buyicha urtacha kursatkichlar aniqlangan bulishi lozim. Mazkur baza malumotlari muntazam tuldirib yangilab borilishi shart. Shunda u korxonalarni doimiy nazorat qilish tizimi bulishi mumkin. Ma’lumotlari ushbu bazaga kirilitilgan har bir korxona undan muntazam ravishda uz kredit reytingini olishi mumkin buladi. Bu esa ichki foydalanish- boshqarish yuzasidan uz vaqtida maqbul qarorlar qabul qilish, shuningdek, tashki investitsiyalash, kreditlash, ish yuzasidan aloqalarni muatahkamlash buyicha qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga egadir. Kredit reytingi korxonaga vositachilar va hamkorlarni tanlash, banklar uchun potensial qarzlarni obyektiv baholash imkonini beradi. Korxonaning moliyaviy –iqtisodiy holati bahosining muntazam reytingi rahbariyatga paydo bulishi mumkin bulgan tanazzulni avvaldan bilish, ularning sabablarini aniqlash va ularni nazorat qilish,uz vaqtida tanazzulga qarshi choralar kyrishi imkonini yaratadi.

Biroq kredit oluvchining moliyaviy holatini bahosining uzigina korxona kredit reytingini belgilash uchun yetarli bulmaydi. Bozordagi uzgarishlar, atrofdagi korxonalar iqtisodiy holati va ularning boshqarishiga doir malumotlarni ham jiddiy tahlil qilish zarur buladi. Bunday tahlilni u bilan raqobatga bulgan baholashlarga qiyoslash hali bizda odatga aylanmagan. Biroq bunday qiyos kredit reytingini aniqlash jarayonini ajralmas qismidir. U esa turli metodlar buyicha mamlakatimiz

iqtisidiyotidagi bozor jarayonlari uziga hosliklarini hisobga olgan yuksak malakali tadqiqotlarni takozo etadi.

Kreditlar tizimi bank resurslarigi asosolanadi. Bunda barilgan kreditlar buyicha tulovlarning amalgam oshirilmasligi natijasida zzarar kurish xafii hisobga olish kerak. Qarz oluvchining kredit va uning foizlarini tulay olmasligi yoki buni iamasligi banklarning kurishiga sabab bulishi mumkin.

Bulajak qarz oluvchilarni puxta tanlash, qarz buyicha tulaovni amalgam oshirilmaslik xatarini kamayishiga yordam bradi. Mijoz ahvolini va uning bankdan olgan qarzini uz vaqtida qaytarish nuqtai nazaridan ishonchliligini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish usullari kup. Masalan qarz oluvchining moliyaviy hisobotlari asosida likvidlik, foydalilik, mitaqillik, samaradorlik va hokazo koeffitdenlarni hisoblash usulidan foydaniladi. Bu usulning nomi mijozlarni tanlash mezonlarini belgilab beruvchi suzlarning bosh harflaridan tzuilgan: C- chrakter (xarkter); A- abilty-(qobiliyat) ; M- means (mablaglar); P- (purpose) – maqsad; A- amount(summa) ; R- repayment (qaytarib berish); I- insureance (ta'minlash).

Bu usuladan foydalangan qarz oluvchiga talluqli masalalar kurilibgina qolmasdan, bankning chiqim va foydasi, kredit qanchaga tushishi mumkinligi, qancha daromad olinishi mumkinligi, qanday xarajatlar qarz oluvchi hisobiga qoplanishi va xizmatlar kursatilganligi hamda muayyan qarz oluvchi bilan bogliq xatarlarni uz zimmasiga olganligi uchun bankka tegadigan vositachilik summasi qancha bulishi kerakligi ham baholanadi. CAMPARI- tahlil qilish vositasi, xolos. U masalani tadqiq qilish uchun tahlilchiga yordam beradigan mantiqiy tuzilmadir. Biroq u tayyor javoblarni bermaydi.

Mijoz tanlashni har bir mezoni nimani nazrda tutadi?

MIJOZNING XARAKTERI. Qarz oluvchining “xarakteri” deganda uning borusi, mahsuliyatini his qilish darajasi, qarzni uzishga tayyorligi va hohishi nazarda tutiladi. Bank eng avvalo qarz oluvchi utmishda uz majburiyatlariga qanday munosabatga bulganligini, u olgan qarzlarini kechiktirib qaytarilganligini, ishbilarmonlar dunyosida uning maqomi qanday ligini aniqlashga harakat qiladi.

Bank qarz oluvchining psixologik qiyofasini bilib olishga harakat qiladi. Buning uchun u bilan shaxsan suzlashishdan, uz arxividagi kartotekadan, boshqa bank va firmalar bilan maslahatlashishdan va shunga uxshash malumotlardan foydalanadi.

QOBILIYAT. Texnika va boshqaruv sohasidagi qobiliyatlar chiqiladi. Bulajak qarz oluvchining tugri qaror qabul qilish, rejalar ishlab chiqish, uz faoliyati soyasidagi tajribasi urganiladi. Umuman olganda esa qarz oluvchining moliyaviy qobiliyatini kurib chiqish zarur va maqsadga muvofiq.

MABLAGLAR. Bank majozning kreditni belgilangan muddatda qaytarish uchun mablaglari borligiga, uzoq vaqt davomida muvoffaqiyatli biznes qilish uchun etarli miqdorda kuchmas molk mulkga va shu kabilarga egaligiga ishonch qilish kerak.

Qarz oluvchining imkoniyatlari, hususan, kreditni qaytarib bera olishi uning daromadlari va xarajatlarini hamda bularning kelajakda uzgarishi mumkinligi, shuningdek, resurslar bilan taminlanganini yaxshilab tahlil qilish yordamida aniqlanadi.

KREDITNING MAQSADI. Mijoz uzining kredit surashdan kuzlagan maqsadini aniq belgilashi kerak. Agar bankchi qarz oluvchining kreditdan nima maqsadda foydalanishini bilmasa, u pul bermasligi kerak. Agar bankchida suralayotgan kreditdan uz urnida foydalanishiga biron bir shubha tugiladiganbursa, u hech qanday omillarga qaramasdan, bu qaez oluvchiga darhol rad javobini berish haqida qarorga kelishi kerak.

KREDIT SUMMASI. Kredit haqidagi taklifda mijoz qancha mablagni qarzga olmoqchi bulayotganligini aniq kursatilishi kerak. Bu uz- uzidan ravshandek tuyilishi muki. Lekin turta muhim narsa borki hisobga olish kerak:

1. bankchi berilishi mumkin bulgan kredit summasini taklif qilmasligi kerak;
2. Bankchi mijozning haddan tashqari kup pul surayotganligini, ya'ni, ma'lum maqsadlar uchun zarur bulganidan kuproq pul surayotganligini tekshirishi kerak;

3. Bankci keragidan kam mablag suraganini tekshirib kurishi kerak. Aks holda bankchi birinchi marta bergan kreditini qutqarib qolish maqsadida qushimcha kredit berishga majbur buladi;
4. Mijozning sarmoyadagi uz moliyaviy ulishi uning bankdan kredit sifatida surayotgan summada taqqoslanganda yetarli miqdorda bulishi kerak.

KREDITNI QAYTARISH MUDDATLARI. Qarzning qaytarib berilishiga ishonish-kreditning goyat muhim talabidir. Basharti kreditni taminlash manbai bulsa-da, qarz oluvchining qarzni va uning yuzasidan tulanadigan foizlarni qaytarish uchun manbai bulmasa, bank bunday qarz oluvchini kreditlamaydi.

Mijozning qarz qaytarish qobiliyatini tekshirib kurish uchun bankchi:

1. Foizlarni qushganda qaytariladigan summa qancha bulishini hisoblab chiqishi kerak. Muddatli kredit berilgan hollarda bu prisip foizlari bilan muntazam qaytarish summsini baholashni(masalan, shaxsiy kreditlar buyicha har yodagi tulovlarni) anglatadi.
2. Kreditni qaytarish manbai yetarli bulishini isbotini topishi kerak. U avval boshdanoq ochiq va yakkahol bulishi kerak (masalan, aktivlarni sotishdan tushadigan mablag, kompaniyaning foydasi va boshqalar);
3. Qarzoluvchida foyda va zararlar haqidagi sungi hisobotni hamda boshqaruv haqidagi hisobotni talab qilishi kerak;
4. Mijozning chiqimlarini uning foyda manбайдan chegirib tashlashi kerak.

TA'MINOT. Taminot muayyan summa kursatilgan sanada bankka tuplanishini kafolatlaydi. Kredit taminotning sotish mukinligi nazarda tutadigan bulsa, bankchi hech qachon kredit bermasligi kerakligi yuqorida ta'kidlab utildi. Ishlar notugri yuritilgan va mijoz qarzini ilgari kelishib olganidek qaytarib bera olmagantaqdirda taminot kreditor uchun ximoya chorasi buladi. Buning ustiga bank taminot uchun qushimcha muammolar tugdiradi. Masalan, garovni zarur darajada saqlab turish kerakligi, shuningdek, taminotni baholash bilan bogliq qiyinchiliklar.

Shunday qilib, kredit berish hususida oqilona qaror qilish uchun kredit inspektorlari tegishili hisobotlarni tuplanishi va urganishi hamda qarz oluvchini va uning korxonasini ahvolini moliyaviy jihatdan puxta tahlil qilib chiqishi kerak. Shuningdek, xatarlar va taminot ham baholanishi zarur. Bularning barchasi bilan bir qanorda undirilgan kredit narxini (foiz stavkasini) aniqlash, shuningdek, yalpi daromadni muntazam taxmin qilib turish ham muhimdir.

Oqilona kredlashning baarcha qoidalarini (muddatlik, tulovlik, ta'minganlanlik, kreditning qaytarib berilishi) hisobga olgan holda bulajak qarz oluvchini kompleks tahlil qilishning ushbu usulini Uzbekiston banklarini kredtlash sohasidagi ishda qullash ijobiy natijalar berishi mumkin.

2.3. Kredit xatrini taqsimlash va qoplash

Tashqi bank xatarlari orasida kredit xatari markaziy urinni egallaydi. Kredit xatari bu- qarzdorning kredit shartnomasi shartlari va muddatiga muvofiq kreditni qaytara olmaslik xataridir.

Kredit xatarini boshqarish eng muhim bosqichi bulib kreditni berish vaqtidagi uning bahosi hisoblanadi. Bunday maqsadlarga qarz oluvchilar taqdim etgan kredit taklifiga baho berish kerak. Bank uzi uchun quyidagilarni aniqlab olishi lozim:

Birinch, bank qarz oluvchining ishlab chiqarish , marketing, moliyaviy ahvoli nuqtai nazaridan imkoniyatlarini qanchalik yaxshi biladi? Bu ayniqsa, yangi mijozlarga tegishli.

Ikkinchidan, kredit taklifi ixtisosli tayyorlangami? U ish yuzasidan ham, iqtisodiy nuqtai nazaridan ham amaliy hisoblanadimi? Bu yerda bank kredit taklifiga uzining talablarini ishlab chiqadi va ular bilan qarz oluvchilarni tanishtiradi.

Kredit taklifini texminiy tuzilishi quydagicha kurinishda bulishi mumkin:

1. Qarz oluvchining nomi (ism, manzil, mutahasisslik);

2. Ariza kuni, xodimning ismi, hisob olib boruvchi, filialning urni, kredit beruvchi;
3. Utgan yilga nisbatan qarz oluvchining bankdagi hisaoblari(Oxirgi kredit va debetlari bilan birga) ahvolining qisqacha kurinishi;
4. Kredit talabini tula tasvirlash: yangi yoki tiklangan kredit, kreditning hajmi, maqsadi, xili, tulash foizi, grafigi, taminot shakli (agar bulsa), foydalanishning kutilayotgan kuni,
5. Mijoz egalik qiladigan shuba yoki boshqa korxonalarga allaqachon berilgan kreditning umumiy miqdori;
6. Kreditni tulash manbalari. Pul oqimi haqida qisqacha malumot. Mijozga xizmat qilish imkoniyati.
7. Garov, uning qiymati, sifati, kafolat, kafillarning ism va manzillari;
8. qarz oluvchi biznesining tuliq xarakteristikasi, uning faoliyatining oxirgi natijasi
9. Auditorlar tasdiqlangan moliyaviy hisobotning tula tahlili, sunggi uch yil (minimum) va bir necha kelgusi yil (odatda ikki) mobaynida.
- 10.qarz oluvchining kuchli va kuchsiz tomonlari. Masalan, uning mahsulotlari raqobatbardoshligi, ishlab chiqarishning texnika bilan qurollantirish darajasi va boshqalar.
- 11.Mijozning kurib chiqilayotgan arizasi bankning kredit siyosatiga mos krlishi haqida hulosa.

Kredit taklifi tuliq, qisqa, hajmi esa 4-6 sahifa atrofida bulishi kerak

Uchincidan, bank kredit maqsadi u uchun ma'qulmi, yuqmi aniqlashi lozim. Bank kredit portfeli yangi kreditlar bilan qanday uzgarishini aniqlashi kerak. Bu kelgusi kredit portfelining xilma-xilliliga, bundan bank portfelli xatarini kamaytirishga yoki teskarisiga olib keladimi?

Bank kredit taklifini baholash uchun ekspertlarni jakb qilishi mumkin. Kredit xatarini baholash vaqtida muayyan mezonlardan foydalanish kerak. Kredit xatarini baholashning beshta mezonlari ajratiladi:

1. Reputciya, ya'ni qarz oluvchining kreditorlar, mijozlar, mol etkazib beruvchilar bilan uzaro munosabatini aniqlash. Bu xarakteristikani baholash qarz oluvchi taqdim etgan yozma axborot asosida ham, tavsiyalardan kelib chiqib suhbat asosida ham uykazilishi mumkin, ayniqsa shaxsiy kredit yoki shaxslar guruhi krediti haqida suz borganda. Qarz oluvchi reputaciyasining tahlili bank xodimi qaydlari bilan kredit buyicha xujjatlarga tikib quyilgan bulishi kerak.
2. Imkoniyatlar- qarz oluvchining sunggi bir necha oy yoki yildagi tulov qobiliyatini aniqlash.
3. Kapital, yani mavjud hususiy capital va uning qandaydir qismini zarur bulgan paytda kreditni qoplash uchun foydalanishda qarz oluvchining roziligi
4. Tashqi shart- sharoitlar, yani regionlar yoki mamlakatlarga tegishili hozirgi iqtisodiyotning ahvolini, bundan tashqari qarz oluvchi qarashli bulgan iqtisodiy tarmoqlarni aniqlash.
5. Garov- bu kreditning ishonchli taminotlaridan biri. Bazida garov kredit xatarini baholashda boshqa mezonlarning kuchsizliligini yengish imkoniyatini beradi, lekin banker faqatgina garov va kafolat asosida kreditlar bermasligi kerakligini har doim yodda saqlashi lozim.

Garov tugrisidagi savollarni hal qilish vaqtida quydagi faktorlarni etiborga olish kerak:

1. Grov sifati: garov sifatidagi asbob-uskuna qanchalik eskirgan yoki shikastlangan, uni tez sotish mumkinmi?
2. Garov inflyasiyadan qanday himoyalangan?
3. Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlar bajarilmay qolgan vaqtda garovni undirish qonuniy tartibda oson buladimi?
4. Garovning bozordagi qiymati va kredit miqdorining uzaro munosabati qanday?

Kredit xatarini baholashning keyingi bosqichi qarz oluvchi haqidagi moliyaviy axborot yigindisi hisoblanadi. Bankka taqdim etilayotgan moliyaviy

axborotlar mustaqil ekspertlar tomonidan tayyorlangan bulsa maqsadga muvofiq bular edi. Moliyaviy axborotlar tarkibiga quydagilar kirishi kerak:

- qarz oluvchining yillik (yarim yillik yoki choraklik bulsa yaxshiroq) xisoboti; balans, daromad tugrisida hisobot, pul fondlari tugrisida hisobot(manbalar va foudalanish);
- qisqa kreditlar uchun aylanma mablaglari- zaxiralar strukturasi, sunggi bir yarim yil ichida debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrovkasi;
- uzoq muddatli kreditlar uchun- korxonaning kelgusi moliyaviy ahvolini, kredit xarajatlari natijalarini aks ettirgan biznes reja.

Biznes reja quydagilarni uz ichiga olishi kerak:

- rahbarlarning fikrlari;
- kredit hisobidan moliyalashtirish krak bulgan mahsulotlar, xizmatlar yoki loyihalarni tasvirlash;
- bozor va tarmoqlar tahlili;
- marketing, ishlab chiqarish va boshqarishning rejalari;
- pul fondlari holatini bashorat qilish(kreditni tulash vaqtida);
- taxminiy moliyaviy hisobot.

Agar kredit hususiy shaxsga berilayotgan bulsa, u holda qarz oluvchi qushimcha shaxsiy deklaratsiyasini sunngi uch yil uchun berishi zarur.

Agar bank kredit xatarlarini maqul topib, kredit berish mumkin deb hisoblasa ham, u har ehtimolga qarshi qarz oluvchi majburiyatlarini bajarmay qolganda bir qator dastlabgi choralarni amalgam oshoradi:

1. Ssuda berish vaqtida garovga quyilgan oxirgi biron bir aktivlar tsessiyasi, ya'ni bank va qarz oluvchi urtasida zayom va quyilgan aktivlarning shartlari va muddatlari urtasidagi aloqani batafsil tekshiradigan yozma kontrakt kelishuv amaldagi yuridik normalarga muvofiq rasmiylashtirilgan bulishi kerak.

2. bank qaysi aktivlar munosib garov bulishini aniqlashi kerak. Shuning uchun garovga quyilgan aktivlar tugrisida bank qushimcha ravishda quyidagilarni aniqlashi kerak:

- kredit berish haqidagi bir qarorga kelishdan oldin va kredit muddati davomida garov bahosining nisbiy qulayligini baholash;
- bozorda garovni jyolashtirish imkoniyatini, uning likvidliligini, ya'ni tez pulga aylanishini tekshirish;
- amortizatsiya tezligini yoki garovning ahloqiy eskirish tezligini, uning ishdan chiqish ehtimolini aniqlash;
- garov sifatida quyilgan aktivlarni kredit berishdan oldin tekshirish;
- garov huquqlariga kunishni sudda ruyxatga olish (agar qonun bunga yulquymasa);

3. Qarzni tulashdan bosh tortgan vaqtda garov qiymatining mumkin qadar katta darajasini taminlash uchun bank ssuda marjasini qullashi mumlin. Bu shuni bildiradiki, kredit garov qiymatining muayyan foizini tashkil qiluvchi summada berilishi kerak. Garovning turli kurinishlari uchun marja bir xil bulmaydi. Umuman, u 100%dan (naqt pul mablaglari uchun) 50%gacha (zahiralar va asbob uskunalar uchun) uzgarishi mumkin. Bank kreidt shartnomasida marjani uzgarishda qarz oluvchiga bu haqida bildirgan holda uz huquqlarini kuzda tutishi lozim. Shunga qaramay, kuchli inflyatsiya vaqtida garov qiymati tez-tez usadi. Bu holda bank qarz oluvchiga garovnng oritqcha qismini berishi kerak.

4. Bankning ehtiyot choralaridan biri bu- kafolatdan foydalanish. Kafolat –bu qarz oluvchi tulashdan bosh tortgan paytda uchinchi tomon qarzni tulash majburiyatining yozma shakli. Shuni nazarda tutish kerakki, kafolat garov singari kredit sifatini yaxshilamaydi, ya'ni u tulamasligi xatarini kamaytirmaydi. Shuning uchun hech qachon kredit bitta kafolat asosida berilmasligi kerak. Kafolatning huquqiy qonunligini tekshirishi muhim hisoblanadi.

Kafolatning asosiy turlari quydagilar hisoblanadi:

1. Taminlangan yoki taminlanmagan kafolat. Yuqori xatarli kreditlar uchun taminlangan kafolatni olish kerak. Ushbu kafolatda kaflning garovidan foydalaniladi.
2. Chegaralangan yoki chegaralanmagan kafolat. Chegaralanmagan kafolatda kafil bir qarz oluvchining hamma qarzlarini bir kreditorga kafolatlaydi. Bu kafolat har yil ugarilishi kerak va bank bir yula kaflning qarzni tulash qobiliyati haqida axborotga ega bulishi lozim. Odatda chegaralanmagan kafolat taminlanmagan buladi.
3. Shaxsiy kafolat. Ulardan javobgarlik va bajarish bir kulda tuplangan ayrim shaxs yoki tashkilotlarga kredit berish uchun foydalaniladi. Bu holda kafil bankka molliaviy bayonet berishi kerak.

Kredit xatari darajasini baholashning keyingi bosqichi kredit sifati bilan bogliq. Chet el banklari kredotlarni tekshirishda va aktivlar monitoringada kreditlarning sifati buyicha reyting sistemasidan keng foydalanidilar.

Odatda banklar uzlari kreidtlarning sifati buyicha reyting sistemasini yaratidilar. Ayrimlari oddiy sxemalardan foydalansalar, boshqalari batafsil tekshirilgan sxemalardan foydaladilar (1-4 misollar ilovalarda kreditlar sifati buyicha turli chet el reyting sistemasidan misollar keltirilgan). Lekin har qanday holatda ham maqsad bitta- kredit berish tugrisida qaror qabul qilish prosessini osonlashtirish va uning bahosani aniqlash, ya'ni kredit uchun foiz belgilash. Odatda bu xatarning turli kategoriyalarining aniq son va harflarini uzlashtirib, xatarlar klassifikatsiyasi orqali amalga oshiradi. Har qanday turdagi kreditning sifati doimo uzgarib turuvchi kupgina faktorlarga bogliq.

Kredit reytingini ta'riflab beruvchi eng muhim faktorlar kuydagilar hisoblanadi:

1. Kreditning maqsadi;
2. kredit miqdori va qarz oluvchi bilan bogliq bulgan ehtimolli yuqotishlarning umumiy miqdori;
3. Qarz oluvchi ishlayotgan tarmoq;

4. Qarz oluvchining avvalgi kreditlari va moliyaviy ahvoli.

Xatarlarni taqsimlash.

Bankning kredit portfeli shunday diversifikatsiya qilingan bulishi lozimki, bunda biror bir mijozning, mijozlar guruhining yoki malum bir tarmoqdagi mojoyzlarning nochor holatga tushib qolishlari bank faoliyati uchun xavf tugdirmasligi kerak.

Mijoalar buyicha:

Bitta mijozga tugri keladigan qarz majburiyatlari Markaziy Bankning 1-kursatmasiga asosan cheklab quyikgan. Unga kura bitta qarzdor zimmasiga bank sarmoyasining 25% foizinigina yuqotish mumkin. Bu ham albatta, ancha yuqori kursatkich, biroq kelajakda bu kursatkichlarni yanada kamaytirish kuzda tutilgan.

Mijozlar guruhlari buyicha:

Yuqorida kursatilgan me'yor mos kelmaydi, chunki banklar kuplab mijozlarga ega bulishlari mumkin. Birvarakayiga bir nechta mijozlarningbankrot bulishlari ehtimoli ancha yuqori va yuqorida kursatgan sharoinlarda, turtinchi yiroq mijozning bankrot bulishi bilan bank uz mablaglaridan butunlay mahrum bulib qoladi. Shuning uchun ham uzaro aloqador bulgan mijozlar guruhi uchun ham cheklovchi meyorlarni qullash kuzda tutilgan. Shu bilan birga yirik kredit xatarlarini maksimal ulchamlari uchun mayor belgilangan.

Faoliyat sektori buyicha:

Faoliyat u yoki bu sektorida yuzaga keladigan qiyinchiliklar shu sektordagi korxonalar uchun, albatta, ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xuddi shu sektorga jalb qilingan bank yoki kredit moliya muassasi ham shu qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz kelishi shubhasiz. Masalan, bazi tijorat banklarning mintaqaviy xususiyati, ularni shu mantaqada etakchi mavqiyaga ega bulgan sektorda xatarlarning yuqori konsentratsiyalashuviga yul quyishga majbur qiladi.

Gejgrafik zonalar buyicha:

Malumbir mantaqa, davlat yoki qit'ada iqtisodiy yoki siyosiy qiyinchiliklar shu hududa faoliyat kursatayotgan banklarning tulov qobiliyatiga tasir kursatmay

qolmaydi. Bu mamlakatlarning uz qarzlarini tulashga layoqatsizligi ba'zi banlarning, jumladan, yirik banklarni ham murakkab ahvolga solib quyadi. Chunki banklar mablaglarning ma'lum qismini zahiralarini yaratishga sarflashlariga tugri keladi.

Xatarlarni qoplash.

Mijozning bankrotligi bilan bogliq buladigan xatarlarga qarshi tura olish uchun har bir bank etarli miqdorda uz mablaglarigaega bulishi kerak/. Bu narsa ularga yuzaga keladigan zararlarni qoplay olish va tulov layoqatini saqlab qolish imkoniyatini yaratadi. Agar depozitlarni majbur sugurta qilish tugrisidagi qonun amalda bulmasa, tijorat banklari kredit xatarlarini qoplash uchun yetarlicha real zahiralarini yaratish buyicha chora- tadbirlarni qullaydilar. Shuningdek, ular uzaro shartnomalarni qoplash uchun korporativ fondlarni tashkil qiladilar.

Xtarlar sifatini aniqlash.

Xatarlar sifati kriteriylarini aniqlab olish mijozlarning bankrootligi oqibatida yuzagas keladigan zararlarni cheklash uchun juda muhim. Xatarlarni son kurinishda ifodalash uchun kotirovkalash, shuningdek, tashqi yoki ichiki reytinglash tizimini amalga kiritish foydali. Bu narsani xorijiy banklar ancha vaqtdan beri amaliyotda qullab kelmoqdalar. Bu tizimga kura, har bir mijozga uning moliyaviy ahvolini, aksiyadorlarning tarkibini, raxbariyatga va boshqalarni hisobga olgan holda kredit katirovkasi (bahosi) beriladi. Bu tizim har tomonlama qulaydir. Albatta , mijoz bilan munosabat urnatish tugrisida qaror qabul qolish asosan, uning reytingiga bogliq buladi. Bunda reyting uzgarib turuvchi kursatkich ekanligini ham nazardan qochirmaslik lozim. Agar axborot haqiqatga mos keladigan bulsa, unda har bir mijoz buyicha reuting tugrisida yigilgan axborot joriy kreditlarni ularni katirovkalari buyicha tasniflash imkoniyatini beradi. Bu esa muhim ma'lumot hisoblanadi (hususana u turli davrlar uchun tulanagan bulsa). Bu malumot bankning kredit portfeli sifatini baholash va bank faoliyatini yaxshilash uchun uning oldiga turgan maqsad va vazifalarni belgilab olish imkonini yaratadi.

Turli banklarda mavjud bulgan mijozlarning moliyaviy ahvolini baholash tizimlarining asosiy kamchiligi –bu kup hollarda moliyaviy kursatkichlar kriterial qiymatlarining tarkibiy aniqlashidir. Bu kursatkichilarni esa faqat tarmoqning barcha korxonalarning xolatini bilgandagina aniqlash mumkin.

Qarz oluvchining moliyaviy holati sifatini aniqlaydigan bu kriteriyalardan tashqari, bozorning har bir segmenti, faoliyatining har bir sektori, har bir geografik hudud, har bir alohida mamlakat uchun majburiyatlar buyicha limitlarni urnatish zarur. Bu chora-datbirlar u yoki bu kategoriyada qiyinchiliklar tugilganda yuzaga keladigan zararlarni cheklab, xavflarni taqsimlash imkoniyatini yaratadi.

Xatarlarni hushyorlik bilan kuzatib boorish.

Kredit shartnomasini tuzib, mablaglarni mijoz ixtiyoriga berish hali kredit operatsiyasini tugallangini bildirmaydi. Chunki xatar kredit muddati davomida saqlanib turadi. Jumladan, bu korxonalarga beriladigan qisqa muddatli kreditlarga ham tegishilidair. Doimiy kuzatuvni amalgam oshirib boorish zarur, chunki kredit berish uchun qaror qabul qilishga asos bulgan unsurlarda ruy berishi mumkin bulgan xatarlarni uz vaqtida aniqlab uni bartaraf qilishi juda muhim.

Salbiy hodisalarni tezlik bilan aniqlash va zudlik bilan uni oldini oladigan choralarni kurish, mijozlar bankrot bulganda bank azrarlarini kamaytiradigan omillardan hisoblanadi.

Buning uchun quydagi tartibga rioya qilish kerak:

- mijoz holatini tekshirish uchun javobgarlik;
- boshqarish uchun yaxshi axborot tizimiga ega bulish;
- kreditning ortib borishini kuzatishi;
- tulanmagan tulovlarni identifikatsiya qilish;
- mablaglar harakati ustidan nazorat qilish;
- mijoz holatini kuzatib boorish;
- dosyeni har yili kurib chiqish.

Mijoz bankka uz vaqtida yillik, choraklik, zarurat tugilganda esa oraliq oylik hisobotlarini junatib turishi lozim. Xisobotning kechikishiesa, salbiy natijalar bilan

bogliq buladi. Moliyaviy hujjatlarni olishning jadvalini tuzib chiqish zarur, ular kechikib qolganda esa bu haqda mijozga eslatma junatish lozim. Bu sohada mikroinformatika juda qul kelishi mumkin. Yillik moliyaviy hisobotlar albatta rasmiy auditorlik tekshiruvidan utishi zarur bulgan holni nazardan kohchirmaslik kerak. Ikkihisobot davri oraliqi uchun korxona bankka oraliq hisobotlarni va pul mablaglari holatining proglozlari junatishi lozim (korxona bu hujjatlarni elon qilishga majbur bulsa). Boshqa korxonalardan esa bu kabi hujjatlar, hususan, ularning ahvoliga nisbatan shub'halar mavjud bulib qolganda, bankning qaroriga kura tlab qilib ilnishi mumkin.

2.4. Kredit xatarini kamaytirishda sugurtalashning ahamiyati


Chumchuqdan qurqqan –tariq ekmaydi, deydi xalqimiz. Albatta katta bir xayrli ish noshlayotkanda unga uziga hos tavakkalchiliklar, xatarlar ham tuldosh buladi, lekin oldiga qat'iy maqsad quygan har qahday sobit qadam inson uz navbatida bu xatarlarni ham hisobga olib quygan bolishi lozim. Kupgina faoliyat turlari singari, tadbirkorning ish jarayoni ham turli havf- xatarlar, kutilmagan vaziat bilan bogliqdir. Ana shu xatarlar oqibatini tebgillashtirish, moliyaviy yuqoyishlar urnini qoplashda sugurta faoliyatining urni beqiyos.

Islohotlarning bugungi bosqichida sugurta ishiga jiddiy ahamiyat berilayotkanini kuzatish mumkin. Hususan, Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yildagi yeettinchi sessiyasida keng jamoatchilik muhokamasiga quyilgan “Sugrta faoliyati tugrisida”gi qonun loyihasining birinchi uqishda qabul qilinishini va ayniqsa, 2002yil 31 tanvarda respublikamiz Prezidenti tomonidan “SUGurta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida”gi farmon imzolanishi mazkur bozorning iqtisodiyotimizdagi urniga katta baho berilayotganidan dalolatdir.

Sugurta kompaniyalari faoliyatining umumiy shartlarini kurib chiqaylik. Sugurtalashda odatda ikki tomon ishitirok etadi. Biri- sugurta tashkiloti (davlat,

aksiyadorlik uoki hususiy) bulib, sugurtalash shartlarini ishlab chiqadi, u sugurtalovchi deb ataladi, ikkinchisi-yuridik yoki jismoniy shaxslar, ular sugurta qildiruvchilar deb yuritiladi, boshqachasiga mijozlar deyish mumkin, bunday shaxslar uzlarining yoki uchinchi tomonning manfaatlarini sugurtalaydilar, ana shu maqsadlar uchun sugurta mukofotlari (tulovlar, badallar) tulaydi. Sugurta hodisasi ruy bergan taqdirda sugurta qildiruvchi polisga muvofiq ravishda sugurta pulini undurub oladi.


Qarz oluvchining kreditni tulay olmaganligi uchun sugurtalash mas'uliyati sxtnasi:



1. Mijoz biznes-reja va boshqa hujjatlar yaqdim qilgan holda bankka kredit berish tugrisida ariza beradi.
2. Bank taqdim etilgan hujjatlarni kurib chiqadi va mijoz bilan kredit shartnomasini tuzadi.
3. Mijoz sugurta shartnomasini tuzish uchun hujjatlarni sugurta kompaniyasiga topshiradi.

4. Sugurta kompaniyasi mijozning moliyaviy ahvolini, kreditdan foydalanish maqsadini urganadi va sugurtalovchi mijoz bilan sugurta shartnimasini tuzadi.
 5. Sugurta shartnomasi asosida mijoz sugurtalovchi xisobiga sugurta pullarining yigindisi utkaziladi.
 6. Sugurta kompaniyasi mijoz nomiga sugurta polisini yozib beradi.
 7. Bank mijozga kredit beradi.
 8. Mijoz kreditni yoki uning bir qismini tulay olmagan vaqtda bank u bilan birga sugurtalovchiga sugurta hodisasini boshlash haqida axborot beradi.
 9. Sugurta kompaniyasi bankka sugurta tavonii tulaydi.
 - . Qarz oluvchi kreditni tulay olmaganligi uchun sugurtalash mas'uliyati shartnomasini tuzish tartibi;
 - . Sugurta shartnomasining muhim bulmagan shartlari.
 - . Sugurta tarifi stavkasi va uni tulash tartibini aniqlash.
 - . Sugurta polisi va unig rekvizitlari tushunchasi.
 - . Litsenziyalarning mavjudligi va sugurta tashkilotlarining moilaviy ahvoli haqida axborot.
 - . Sugurta vaziatlari boshlahganda tomonlarning munosabati.
 - . Sugurta tavonini tulash va tulashdan vos kechish.
- Sugurta muammolari:
1. Respublika hududlari sugurta xizmatlar bozorinig rivojlanmanligi.
 2. Bank kredit mutahassislarinig spesifik bilimlari sugurta buyicha hamon yaxshi darajada emasligi.
 3. Qarz oluvchilar va sugurtalovchilarning shartnoma majburiyatlarini bajarmasligi.

Garovga quyilgan mulkni majburiy sugurtalash sxemasi.



1. Mijoz biznes-reja va boshqa hujjatlarni taqdim qilgan holda bankka kredit berish tugrisida ariza beradi.
2. Bank mijoz bilan mulk garovi shartnimasini tuzadi. Odamlar yashamaydigan binolar va inshootlarni garovga quyish buyicha shartnomalar tuman va shaharlarning davlat kadastri xizmatida, odamlar yashaydigan binolar va inshootlarni garovga quyish buyicha shartnomalar texnik inventarizasiya byurosida ruyxatga olingan bulishi kerak.
3. Bank nijoz sugurta kompaniyasiga garovga quyilgan mulkni sugurtalash tugrisidagi ariza bilan murojat qiladi. Ariza bilan birga ruyxatga olingan mulk shartnomasi va boshqa hujjatlarni qushib beradi.
4. sugurtalovchi hujjatlarni kurib chiqqandan keyin sugurta shartnomasini tuzadi.
5. Mijoz sugurtalovchiga sugurta shartmasida belgilangan sugurta pulini tulaydi.
6. Sugurta kompaniyasi sugurta polisini yozadi.

7. Mijoz bankka sugurta shartnomasining va sugurta polisining nusxasini taqdim etadi.
 8. Bank mijoz bilan kredit shartnomasini tuzadi.
 9. Sugurta xabarlari kelgan vaqtda mijoz sugurtalovchiga bu haqda malum qiladi.
 10. Mijozga sugurta tulovi tulanadi.
 11. Mijoz bankka kredit resurslarini qaytara olmasligini ma'lum qiladi.
 12. Qarz oluvchi asosiy qarzni va u asosida hisoblab ustuga qushilgan foizini tulay olmagan vaqtda bank kredit shartmasiga binoan garovga quyilgan mulkni undiradi.
- Sugurta shartmasini tuzish va uning yuridik kuchga kitishi.
 - Sugurta tarifi stavkasi va uni tulash tartibi.
 - Sugurtalovchi va sugurtalanuvchining huquq va majburiyatlari.
 - Garovga quyilgan mulkning zarar miqdorini aniqlash, aktlar tuzish va sugurta tulovini tilash.

Sugurtalash muammolari:

1. Sugurtakash shartnimasiga binoan sugurta kompaniyasining majburiyatlarining bajarish uchun mablaglarning yetarli emasligi.
2. Sugurtalovchilarda litsenziyalarning yuqligi.
3. Bozor hamda baholovchi firmalar talabiga muvofiq garovga quyilgan mulkning aniq bahosining yuqligi.
4. Ushbu sugurta turini utkazish ba'zi sugurta kompaniyalari ("Uzagrosugurta", "Kafolat", "Uzbekinvest", "Madat") tomonidan chegaaralanganligi.

III-BOB. AKSIYADORLIK TIJORAT “TURON-BANK” SAMARQAND VILOYATI FILIALIDA KREDIT XATARINI BOSHQARISH

3.1. “Turon- bank” va uning siyosati

Aksiyadorlik-tijorat “Turon-Bank” 1996 yil 27 iyul 294- sonli qarori bilan ochiq aksiyadorlar jamiyati shaklida tashkil etilgan. Bank uz nomi yozilgan muhri va emblemasiga ega.

Bank Uzbekiston Respublikasining yagona bank tizimiga kiradi. Yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek Uzbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hususiyatlarini hisobga olgan holda horijiy yuridik hamda jismoniy shaxslar ham bankning ta’sischilari va aksiyadorlari bulishi mukin.

Bank yuridik shaxs hisoblanadi, alohida mulki va mustaqil balansga ega, tijorat asosida tula xujalik hisobi prinsiplarida faoliyaat kursatadi.

Bank ustavi ruyxatdan utgan va Uzbekiston Markaziy bankida litsenziya olgan kundan boshlab yuridik shaxs maqomini oladi. Bankni tashkil etish haqida e’lon matbuotda chop etiladi.

Banking maqsadlari va strategiyasi:

1. Bank qishloqda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, paxtachilik va u bilan bogliq tarmoqqa bank xizmat kursatishini taxshilash, hisob-kitoblarning yangi shakllarini takomillashtirish hamda rivojlantirish maqsadida ta’sis etiladi.
2. Bank paxta yetishtiruvchi xujaliklar, paxta zavodlari, paxtachilikka xizmat kursatadigan, u bilan uzaro bogliq tarmoqlarning boshqa korxona va tashkilotlari, shuningdek mulkchilikning barcha shasklidagi jismoniy hamda yuridik shaxlarga kompleks bank va valyuta investitsiya xizmati kursatadi.
3. Bank faoliyati moliyaviy mablaglarni mujassamlashtirish va ularni paxta yetishtirish va qayta ishlash bilan bogliq bulgan hujaliklar Hamada tashkilotlarni rivojlantirishga yunaltirishdan iboratdir.

4. Bank paxta yetishtirish, uni qayta ishlash saqlash va sotish bilan bogliq hujaliklar hamda tashkilotlar bilan fyuchers bitimlarni amalgam oshirish orqali bulgusi hosilni bunaklashtirishga kumaklashadi.
5. Mijozlarga bank xizmati kursatilishini yaqinlashtirish maqsadida xujaliklar “Paxta Bank” shahobchalarini belgilangan tartibda tashkil qiladi.

Bank tadbirkorlik tuzulmalarining loyixalarini kreditlash yuli bilan ularni qullab- quvvatlash dasturida qatnashib uzining butun faoliyati davomida kreditlar berdi. Bu esa qishloqda tadbirkorlik harakatini rivojlantirishiga, fermer xujaliklari, qishloq xujalik maxsulotini qayta ishlaydigan kichik (shu jumladan hususiy) korxona va firmalar qaror topishiga va mustahkamlanishiga, yani qishiloq hujaligiga mahsuloti ishlab chiqarish kupayishiga va shu tariqa boxorning tulishiga yordam beradi.

Uzbekiston Respublikasi prezidenti “Hususiy tadbirkorlik, kichik va urta biznesni rivojlantirishini takominlashtirish chora- tadbirlari” tugrisidagi 09.04.1998 yil PF-187- sonli farmonida va Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Kichik va urta biznesni rivojlantirishini takominlashtirish chora- tadbirlar tugrisida” gi 27.05.1998 yil232- sonli karidorida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida muvofaqiyatli ishlayotgan ishbilarmonlar va tadbirkorlarga bank xizmati kursatishning eng qulay sharoitlari yaratilmoqda.

“Turon-bank” uzining yeti yillik faoliyatu davomida iqtisodiy islohotlarni amalgam oshirishda, davlatimizning chinakam demokratik jamiyat qurish yulidan ilgalirab borishiga qaratilgan davlat pul-kredit siyosatining asosiy yunalishlariga muvoffiq Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarini va Respublika hukumati qarorlarini bajarish yuzasidan aniq maqsadlarni kuzlab ish olib bormoqda. Mulkchilikning yangi shakllariga, soglam moliya kredit tizimiga hamda hususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga asoslangan milliy iqtisodiyotni barpo etishda banklarning, xususan, Yangirabot bulimining roli yuksalib bormoqda.

3.2. Kredit xatarlari darajasini baholash.

“Turon-bank” Samarqand viloyati filialida kredit xatarlari darajasini baholashga katta e’tibor berilmoqda. Hususan, mijozlarning kreditga layoqatiga e’tibor berilmaslik bankning moliyaviy ahvoliga yomon ta’sir kursatadi.

Kredit layoqati- bu hujalik subyektlarning moliyaviy ahvoli, ularning kreditni tuliq va vaqtida qaytarish qobiliyatini baholash.

Hujalik subyektlarning kreditga layoqati bir qator kursatkichkichlar bilan xarakterlanadi. Kursatkichlar soni chegaralanmaydu va har tujorat banki xazmat kursatayotgan mijozlar faoliyatidan kelib chiqib bu kursatkichlarni mustaqil belgilaydi.

Ushbu metodika kredit layoqatini kursatuvchi muhim kursatkichlar kurib chiqiladi: qoplash koeffisenti, likvidlik va hususiy mablaglar bilan taminlanganlik (avtonomiya koeffisenti), bundan tashqari hususiy aylanma mablaglar dinamikasi, tulamaslik, foydali bulish va aylanma mablaglar harakati.

Kredit layoqatining asosiy kursatkichlari kuydagilar hisoblanadi:

1. Qoplash koeffisenti-QK.
2. Likvidlik koeffitsenti-LQ.
3. Hususiy mablaglar taminoti (Avtonomiya koeffisenti-AK).

Kredit layoqatini baholash hujalik subyektlarning foyda va zararlari tugrisidagi hisoboti va balansi tahlili asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, kerakli vaqtda kredit layoqatini baholash uchun bankning uz statistic va analitik materiallaridan va boshqa axborotdan foydalaniladi.

Kredit layoqati kursatkichlari hisobi

I.Pul mablag'lari.	Balans qatori nomeri
Pul mablaglari	170
Valyuta mablagalri	180
Xazinadagi pul mablaglari	190
I-bulim buyicha jami	
II. Oson sotiladigan talablar.	
Qisqa muddatli quyilmalar (obligasiyalar, deppozitlar, taqdim etilgan zayomlar va boshqa qimmatbaho qogozlar) – faqat uch oy davomida qaytarishi kuzda tutilganlari	200
Xaridaor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar	220
Muddati uchu oydan oshmagan bunak tulovlari	230
Byudjet bilan hisoblashishlar	240
Xodimlar biloan hisoblashishlar	250
Shu'ba korxonalar bilan hisoblashishlar	260
Uyushma korxonalar bilan hisoblashishlar	270
Tasischilar bilan hisoblashishlar	280
Boshqa debitorlar	290
II-bulim buyicha jami	
III. Oson sotiladigan zahiralalar	
Ishlab chiqarish zahiralari	120
Tayyor mahsulot	140
Sotish uchun olingan tovarlar	150
III bulim buyicha jami	
IV. Qisqa muddatli majburiyatlar	
Uzoq muddatli qarzlar (tulash muddati yaqin uch oy ichida)	400
Uzoq muddatli krditlar (tulash muddati yaqin uch oy ichida)	410
Qisqa muddatli qarzlar	420
Qisqa muddatli kreditlar	430
Xaridor va buyurtmachilardan olingan (schyotlarga kelib tushgan) bunaklar	440
Mol etkazib beruvchilaar	450
Byudjet buyicha qarzlar	460

Mehnatga haq tulash buyicha qarzlari	470
Ijtimoiy sugurta va ta'minot buyicha qarzlari	480
Mulkiy va shaxsiy sugurta buyicha qarzlari	490
Byudjetdan tashqari tulovlar buyicha qarzlari	500
Shu'ba korxonalariga qarzlari	510
Uyushma korxonalariga qarzlari	520
Boshqa kreditlar (qarzni qaytarish muddati 90 kundan kam bulmaganda hisobga olinadi)	530
IV-bulim buyicha jami	
V.Uz mablaglari manbalari	
Usatv kapitali	320
Qushilgan kapital	330
Rezerv kapitali	340
Taqsimlanmagan foyda	350
Maqsadli tushum va fondlar	360
Kelgusi davr sarflari va tulovlari uchun rezervlar	370
Kelgusi davr daromadlari	380
V-bulim buyicha jami	390

Aytib utilganlarni hisobga olib, kredit layoqati kursatkichlari quyidagicha aniqlanadi:

1. Qoplash koeffisenti. Balansni qoplash koeffisenti qisqa muddatli likvid mablaglar va qisqa muddatli majburiyatlarni munosabati qanday ekanligini hisoblab chiqadi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$QK = \frac{LM}{QM}$$

Bu yerda:

QK-qoplash koeffisenti

LM- qisqa muddatli likvid mablaglar

QM- qisqa muddatli majburiyatlar

Ya'ni:

$$Q_k = \frac{\text{Pul mablaglari} + \text{oson sotiladigan tablar} + \text{osn sotiladigan zahiralar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}$$

$$QK = \frac{\text{I-bulim} + \text{II-bulim} + \text{III-bulim}}{\text{IV-bulim}}$$

Agar likvid aktivlar qisqa muddatli majburiyatlarni ikki martaga ortirib yuborsa, bunday hujjatlar subyektining moliyaviy ahvoli bexatar hisoblanadi. Bu yuqori chegara hisoblanadi. Xujalik subyaktlari egalik qilayotgan likvidaktivlar hajmi qisqa muddatli majburiyatga teng bulsa, bu kuyi chegara hisoblanadi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish xarakteridek faktorlar ham xujalik subyektlarining aktivlari tuzilishi ham qoplash kursatkichini ham tavsiflaydigan korxona balansi likvidligining haqiqiy ahvolini notugri kursatishi mumkin.

2. likvidlik koeffisenti. Qisqa muddatli majburiyatlarga oson sotiladigan talablar va pul mablaglarining munosabati qandayligini aniqlaydigan xujalik subyektlaribalansining likvidlik koeffisenti turli faktorlar ta'sirini kamaytirish uchun hisoblab chiqiladi, ya'ni tovarlar moddiy boyliklari zahirasi hisobga kirmay, faqat haqiqiy aktivlar hisobga olinadi.

$$LK = \frac{PM + OST}{KM}$$

Bu yerda:

LK- likvidlik koeffisenti

PM-pul mablaglari

OST- osn sotiladigan talablar

QM-qisqa muddatli majburiyatlar

Ya'ni:

Pul mablaglari+oson sotoladigan talablar

LK=-----

Qisqa muddatli majburiyatlar

Yoki:

I-bulim+II-bulim

LK=-----

IV-bulim

Likvidlik koeffsienti joriy majburiyatlarni qancha qismi nafaqat naqt pul hisoblarida, balki kutilayotgan bajarilishi kursatilgan xizmat uchun kutilayotga tushim hisobidan ham qoplanishi mukinligini kursatadi.

3. Avtonomiya koeffisienti. Xujalik subyektlarining hususiy mablaglar manbai taminoti korxona balanslarining passivida hamma hususiy manbalar ulishini hisoblash yuli bilan baholanadi.

Hususiy mablaglar manbai taminoti koeffisienti (avtonomiya koeff-ti) quyidagi formula asosida aniqladi:

XM

AK=-----

BP

Bu yerda:

AK-Avtonomiya koeff-ti

XM- hususiy mablaglar manbai

BP- balans passive

Korxonaning hususiy manbalari tatminoti foizi 30% dank am bulmasligi kerak. Aylanma mablaglar aylanishini yuqoro bulganda va korxona faoliyati xarakteriga bogliq bulganda bu kursatkich darajasi bir muncha past bulishi mumkin.

Agar bu koeffisient 0,6 dan, ya'ni, 60% dan yuqori balsa, korxona xatari minimumga yetkazilgan hisoblanadi.

Kreditga layoqatini kushimcha kursatkichlariga hususiy aylanma mablaglar dinamikasi, foydali bulishi, tulaslik va aylanma mablaglarining aylanishiga tegishli

4. Naqd hususiy aylanma mablaglar.

$$NXAM=XMM- UA$$

Bu yerda:

NXAM-naqd hususiy aylanma mablaglar(390+400+410- qatorlar)

XMM-hususiy mablaglar manbalari

UA-uzoq muddatli akyivlar(110-qator).

Ya'ni:

Naqd hususiy aylanma mablaglarining =(390+400+410)- 110-qatorlar.

Agar xujalik subyektining uzoq muddatli aktivlari hususiy mablaglar manbaini ishirs, noliivid balans hosil buladi. Xujalik subyektining nizomiga muvofiq noliivid balansga ega bulgan bank kreditlaridan foydalanish huquqiga ega emaslar.

5. Korxonalarning aylanma mablaglari aylanishi ikkita kursatkich yordamida aniqlanadi: aylanma mablaglar aylanishi koeffisienti va kunlik aylanma mablaglar aylanishi.

Aylanma mablaglar aylanishi koeffisienti aylanma mablaglar harakat tezligi aylanma mablaglarning urtacha xronologik qoldiqlariga mahsulot sotishda tushgan pulni qanday qaytarishi hisoblab chiqishi tariflaydi.

C

AK=-----

UK

Bu yerda:

AK- aylanish koeff-ti

C-soyilgan mahsulot hajmi

UK-aylanma mablaglarning urtacha xronologik qoldiqlari.

Kunlik aylanma mablaglari aylanishi:

$$U_k * K$$

$$Ay\ kun = \frac{\dots}{\dots}$$

$$C$$

Bu yerda:

Ay kun-kunlik aylanma mablaglar aylanishi

K-tekshirilgan vaqtdagi kunlar

C-sotish hajmi

UK-aylanma mablaglarning urtacha qoldiqlari

Jadaval №1

Sinflar buyicha jredit layoqati asosiy kursatkichlarining talablari

	Nomi	I sinf	II sinf	III sinf
1	Qoploash koeff-ti	$QK \geq 2,0$	$2,0 > QK \geq 1,0$	$1,0 > QK > 0,5$
2	Likvidlik koeff-ti	$LK \geq 1,5$	$1,5 > LK \geq 1,0$	$1,0 > LK > 0,5$
3	Avtonomiya koeff-ti	$AK \geq 60\%$	$60\% > AK \geq 30\%$	$30\% > AK > 15\%$

Utkazilgan tahlil va koeffisientlar hajmi asosida kredit layoqati uch sinfga ajratiladi.

I-sinfga kiradigan korxonalar umumiy sharoitida kreditlanadi. Ularga bankning ichki siyosati va qonunlariga muvofiq imtiyozlar berilishi mumkin.

II-sinfga kiruvchi korxonalar ham umumiy sharoitda kreditlanadi. Agr yaxshi kushimcha kursatkichlar bulsa imtiyozlar berish mumkin. Agar yomon kushimcha kursatkichlarga ega bulsalar, ular qaltis hisoblanadilar.

III-sinfga kiruvchi korxonalar kreditga layoqatsiz hisoblanadi va ayrim vaqtlarda foiz stavkasining kutarilishini etiborga olib, yuqori likvidli ta'minot asosida kreditlanadi.

Kredit layoqati kursatkichlari III sinfdan past bulgan korxonalarga kredit bermaslik lozim.

I va II boblarda aytib utilgan malumotlar "Paxta bank" Yangirabot bulimida kurib chiqildi.

2001 yilda bulim tomonidan 640 dan ortiq mijozga xizmat kursatilgan. Bulardan 38 tasi byudjet, 274-qishloq xujaligi, 4-savdo, 4-transport, bittasi sanoat, 225-kichik va urta biznes subyektlari, 94-boshqa korxona va tashkilotlardir.

"Paxta bank" mijozlaridan bulgan "Sitara" hususiy firmasining va "Umidjon" fermer hujaligining kreditga layoqatlighi tahlil qiliindi.

1. "Sitara" hususiy firmasi.

"Sitara" hususiy firmasining pul mablaglari-10000 ming sumni, oson soyiladigan talablari-12780 ming sumni, oson sotiladigan zahiralari-2822 ming sumni, qisqa muddatli majburiyatlari-10314 ming sumni tashkil qiladi.keltirilgan formulalar va korxonaning yillik hisoboti buyicha "Sitara" hususiy firmasining kreditga layoqatlighi aniqlanadi:

Kredit layoqati buyicha "Sitara" hususiy firmasining 2001 yil balansi buyicha hisobi:

№	Balans bulimining nomi	Summa (ming sum)
1	Pul mablaglari (170+180+190)	10000
2	Oson sotiladigan talablar(200+220+230+240+250+ 260+270+280+290)	12780

3	Oson sotiladigan zahiralar(120+140+150)	2822
4	Qisqa muddatli majburiyatlar(410+420+430+440+450+460+ 470+480+500+510+530+400)	10314
5	1+2+3qatorlar Qoplash koeffisienti----- 4 qator	2,5
6	1+2 qatorlar Likvidlik koeffisienti ----- 4 qator	2,2
7	390 Avtonomiya koeffisienti----- *100 550	73,5
8	Sotishdan tushgan tushum	12240
9	Aylanma mablaglar urtacha qiymati 300 qator	36742
10	8qator Aylanish koeffisienti----- 9 qator	0.3
11	8+9 qatorlar Kunlik aylanish----- 8 qator	4.0
12	Naqd hususiy aylanma mablaglar	16428
13	Moliyaviy zahiralar va harajatlar	36742

14	Naqd hususiy aylanma mablaglarning solishtirma vazni 12 qator*100 ----- 13 qator	44.7
15	Xujalik quyidagi sinflarga tegishli: Qoplash buyicha Likvidlik buyicha Avtonomiya buyicha	1 1 1

Tahlil natijasiga kura quyidagilar ma'lum buldi:

“Sitara” hususiy firmasinng kreditga layoqatligi 1-sinfga tegishli, ya’ni bu firma moliyaviy jihatdan mustahkam, garov mulki ishonchli, kreditning maqsadligi yaxshi, kuchli pul oqimiga ega, xatarning umuman yuqligi sababli “Sitara” hususiy firmasi kreditga layoqatli hisoblanadi va unga kredit berish mumkin.

2.”Umidjon” fermer xujaligi.

“Umidjon” fermer xujaligining pul mablaglari- 52ming sumni, oson sotiladigan talablari-20521 ming sumni, sosn sotiladigan zahiralar-16730 ming sumni, qisqa muddatli majburiyatlari-82696 ming sumni tashkil qiladi.

“Umidjon” fermer xujaligining yillik hisoboti, balansiga asoslanib, formulalar yordamida qoplash koeffisienti, likvidlik koeffisienti, avtonomiya koeffisienti va boshqalar hisoblab chiqildi.shulardan kelib chiqib, “Umidjon” fermer xujaligi kreditga layoqatlimi, yoqmi aniqlanadi:

Kredit layoqati buyicha “Umidjon” fermer xujaligining 2002 yil I-kvartal uchun hisobi:

№	Balans bulimining nomi	Summa (ming sum)
1	Pul mablaglari(170+180+190)	52
2	Oson sotiladigantalablar(200+220+230+240+250+ 260+270+280+290)	20521
3	Oson sotiladigan zahiralar(120+140+150)	16730
4	Qisqa muddatli majburiyatlar(410+420+430+450+460 +470+480+500+510+530+400)	82696
5	1+2+3+ qatorlar Qoplash koeffisienti----- 4 qator	0.45
6	1+2 qatorlar Likvidlik koeffisienti----- 4 qator	0.25
7	390 Avtonomiya koeffisienti----- *100 550	23.4
8	Sotishdan tushkan tushum	10500
9	Aylanma mablaglar urtacha qiymati	7349
10	8qator Aylanish koeffisienti----- 9qator	1.4

	8+9qatorlar	
11	Kunlik aylanish----- 8 qator	1.7
12	Naqd hususiy aylanma mablaglar	15802
13	Moliyaviy zahiralar va harajatlar300 qator	7349
14	Naqd hususiy aylanma mablagrning solishtirma vazni 12 qator*100 13 qator	215
15	Xujali quyidagi sinflarga tegishli: Qoplash buyicha Likvidlik buyicha Avtonomiya buyicha	4 4 3

Xisoblardan kurinib turibdiki, qoplash koeffisienti 4- sinfga, likvidlk koeffisienti 4-sinfga, avtonomiya koeffisienti-3-sinfga tegishli. Shunga kura “Umidjon” fermer xujaligi kreditga layoqatsiz hisoblanadi, ya’ni u moliyaviy jihatdan zaif, garov etarli darajada emas, pul oqimi kuchsiz, xatarning yuqoriligi sababli bu korxonaga kredit bermaslik kerak.

Kreditning xatar darajasi klassifikatsiyalanganda bu qarz oluvchi ologan kredit umidsiz kreditlar turkumiga kiritiladi. Bunday kreditlar qytarilmaydigan kreditlar hisoblanadi.

3.3 Xatarni kamaytirish buyicha kuriladigan chora-tadbirlar

Tijorat banki doimo xizmat kursatayotgan mijozlarning faoliyati tugrisidagi axborotlarga ega bulishi, kreditga layoqatligini analiz qilishi, ya'ni, axborotlar bankini yaratishi kerak.

Kreditlash vaqtida iqtisodiy ish kredit shartnomasi shartlarining bajarilishiga, qarz oluvchi olgan kreditdan tugri foydalanishiga, kreditni uz vaqtida va tuliq qoplanishiga, kreditdan foydalanish muddatida qarz oluvchi bilan aloqani uzmaslikka qaratilagan buladi.

Ushbu maqsadlarga mijozning moliyaviy xujalik faoliyati tuzilgan shartnimaga muvofiq mahsulotlarni yetkazish majburiyati, ishlab chiqarish hajmi, noishlab chiqarish harajatlari va yuqotishalar, foyda hususiy aylanma mablagalr dinamikasi, zahiralar holati va aylanma mablaglarning aylanishi tahlilini amalgam oshiradi.

Bank qarz oluvchining qarzni tulash qobiliyatini doimo manitoring qilishi lozim.

Buxgalteriya xisobi va hisobotning holatini, balans axborotlarining tugriligini, debitor va kreditor qarzlarining xolatini, shuningdek, bankka taqdim etilgan garov xolatini tekshirish utkazilazdi.

Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashganda, bank nazoratidan bosh tortganda, bank kredit berishni tuxtashish va qarz oluvchiga uz hisobidan kreditni tulattirish huquqiga egadir.

Garovga quyilgan mulkni bank talabi "Garov tugrisidagi" gi qonun va Fuqarolar kodeksiga muvofiq bajariladi.

Agar kredit shartnomasida kelishilgan bulsa, banklar xujalik sudiga murojaat qilmasdan olingan taminotini sotish huquqiga egadir.

Amaldagi xolatlarga muvofiq banklar kredit portfelini sistematik tahlil qilishi, har bir kreditning xatar darajasini klassifikatsiyalashi kerak. Ushbu klassifikatsiya darajasidan qaysi biriga tegishili ekanligini aniqlashi lozim:

- A) Yaxshi
- B) Standart
- C) Substandart
- D) Shubhali
- E) Umidsiz

Banklarda majburiy ravishda ssudalar buyicha mumkin bulgan yuqotishlar uchun zahira yaratiladi.

Ssudalar buyicha mumkin bulgan yuqotishlar uzun zahira bankning xatar darajasiga ta'sir etadigan faktorlarni aniqlash va hujjatlar subyektlariga berilgan kreditlar tahlili asosida yaratiladi. Zahira hajmi ssuda sifatiga bogliq.

Tijorat banklari zahira hajmini amaldagi tartibdan kelib chiqib har hisobot oyining birinchi sanasidan hisoblab chiqadi.

Ssudalar buyicha mumkin bulgan yuqotishlar uchun zahiralarga mablaglar har oyda ajratilishi ishlab chiqiladi.

“Paxta bank”ning qarz oluvchi mijozlari bank oldidagi majburiyatlarini bajarmaganda kredit shartnomasi shartlaridan kelib chiqib, bank quyidagi chora-tadbirlarni amalgam oshiradi:

- agar kelishilgan muddat ichida bank tavsiyalari bajarilmasa qarz oluvchi kreditlashni tuxtatish tugrisida ogohlantirib, da'vo xati yuboriladi;
- kreditdan foydalangalik uchun foizlar uz vaqtida tulanmasa kredit shartnomasi belgilangan muddat ichida kredit qoplanmasa, bank bankrotlik tugrisidagi qonunni kuzda tutib qarz oluvchini ogohlantirib, da'vo xati yuboradi va qarzning qolgan qismini muddatdan oldin tulattiradi;
- qarz oluvchi va buxgalteriya hisobotlarida belgilangan faktorlarni buzganda bank kreditlashni tuxtatadi va bu haqda soliq inspeksiyasiga ma'lum qiladi. Bundan tashqari, u hisob va hisobotlarni buzish sabablari tugrisida tushuntirib berishini talab qiladi.

Qarz oluvchi kreditni belgilangan maqsadda ishlatmaganligi uchun bankka kredit shartnomasida kursatilgan miqdorda jarima tulaydi.

Kreditni berish vaqtda uni qoplash manbai aniq belgilab olingan bulishi lozim. “Paxta bank”da kreditni qoplashning ikki manbai hisobga olinadi:

1. Kelib tushadigan daromadlar;
2. aktivlarni sotishdan tushdigan daromadlar.

Tovar ishlab chiqaruvchi koqxonaning kreditga layoqatliligi u oladigan foydaning miqdoriga va doimiyligiga bogliq. Bunda bank , albatta, korxonaning boshqa korxonalar bilan buladigan aloqalariga etibor berishi lozim. Agar korxonaning daromadi bir yoki ikkita korxonadan kelib tushadigan bulsa yoki bitta yiriq operatsiyadan keladigan bulsa, kreditning qoplanmay qolish xavfi kuchayadi.

“Paxta bank”da kredit xatarini kamaytirishda mijoz qarzni tulashdanboshtortgan vaqtda garov qiymatinig mumkin qadar katta darajasini ta’minlash uchun bank sadda marjasini qullaydi uoki ehtiyot choralaridan bulgan kafolatdan foydaladi.

XULOSA

Bizga malumki, tijorat banklari asosan bank kreditlarini berish bilan shugullanadi. Kreditlash jarayonida kredit xatari ma'lum darajada mavjud buladi va bu xatarning oshib keteishi bank daromadinig kamayishiga va hattoki, banklarning bankrot bulishiga ham olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda davlat banklarida mijozning business-rejasi mukammal urganilib chiqilmasdan, mijozning moliyaviy ahvoli, garovning sifati, qiymatining yetarliligiga etibor berilmasdan kur-kurona tanish bilishchilik qilib kredit berilmoqda. Kredit boshqa maqsadlarda ishlatilib, kredit soizi yoki summasi uz vaqtida tulanmay, muammoli kreditlarning kupayishiga olib kelmoqda.

Bznk rahbariyatining mas'uliyatsizligi tufayli bank kredit portfelinig sifati yomonlashib. Kredit xatari darajasi ortib bormoqda va kredit xatarining boshqarish dolzarb muammoga aylabmoqda.

Kredit xatari oshib ketmasligi uchun va kredit xatarini boshqarish uhcun quyidagilarni amalgam oshirish lozim:

1. Mijoz business-rejani uzi tuzgan bulishi kerak va bankning kredit xodimlari uni yaxshilab urganib chiqishlari lozim;
2. Mijozning moliyaviy ahvoli uning ishonchligi, garovga quyilgan mulkning sifati, qiymatiga alohida etibor berish kerak;
3. Kredit berilgandan keyin bank kredit xodimlari mijoz kreditni uz maqsadida ishlayotganligini tekshirish lozim;
4. Kredit olgan mijozlar oyligi, charaklik, yillik hisob va hisobotlarni uz vaqtida bankka taqdim etishlari kerak;
5. Bnk kredit xodimlari mijoz faoliyatini tez-tez tekshirib turishi lozim. Agar mijozning moliyaviy ahvoli yomonlashga yoki kredit shartnomasi shartlarini buzgan bulsa, bank mijozni kreditlashni tuxtatish yoki muddatidan oldin undirish huquqiga ega;

6. kredit portfelini tashkil qilish, uni oqilona boshqarish va nazorat qilish banklar faoliyatini yaxshilashga, kredit xatarini kamaytirishga olib keladi.

Kredit resurslaridan samarali foydalanib, kreditlar sifatini yaxshilab, kredit xatarini kamaytirish yuli bilan kredit portfeli sifatini yaxshilash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari kredit portfelining sifatini yaxshilash uchun quyidagi:

- tijorat banklari tizimida tanlab kreditlash usullari ahamiyatini oshirish;
- kreditlanayotkan sohani chuqur moliyaviy tahlil qilish;
- ssudalar ustidan qattiq nazorat urnatish;
- kreditlash jarayonini samaralari nazorat etish;
- foydaga alohida etibor berish kabi iqtisodiy muammolarni hal qilishilozim.

Mana shu shartlar tuliq bajarilgandagina banklar murakkab ahvolga tushmasdan, uz mablaglarini ma'lum qismini zahiralar yaratishga sarflashadi. Bu esa uz navbatida, bozor iqtisodiyotiga utayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining yanada barqarorlashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Qonun va meyoriy hujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasining banklar va banklar faoliyati to'g'risidagi qonun Tashkent – 1996.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank faoliyati to'g'risidagi qonuni. Tashkent – 1995
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning « Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishga oid qo'shimcha – chora tadbirlar to'g'risidagi farmoni. Toshkent 1997
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning « Bank tizimini yanada erkinlashtirish va ishlab chiqarish borasidagi chora tadbirlar to'g'risidagi farmoni» Toshkent 2009y 21-mart

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning assarlari va ma'ruzalari:

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat"2008.
2. I.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishining yo'llari va choralari. Toshkent. "O'zbekiston"2009 y.
3. I.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. "Zarafshon" gazetasi 2010 y. 16-dekabr.
4. I.Karimov. Mamlakatimizning modernizatsiya qilish yo'li izchil davom ettirish taraqqiyotimizning muhim omilidir. Xalq so'zi. 2010 y. 8-dekabr.

Asosiy adabiyotlar.

1. Abdullayeva Sh. Z. Bank ishi Toshkent – 2003
2. Abdullayeva Sh. Z. , Pul, kredit va banklar Toshkent 2002
3. Abdullayeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash Toshkent 2002.
4. Abdullayeva Sh. Z Shog'azimiy sh. sh. qimmat liqog'ozlar 100 savol va javob Toshkent - 1997
5. Abdullayev Ya. , Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari 100 savol va javob
6. Abdullayev Yo. Boboqulov T. Kredit 100-savol, javob – 1996.
7. Angilidi M. C. Organizatsiya kreditnogo prosesa v komercheskih bankax Toshkent 1996
8. Abdullayev Yo. Boboqulov T. Kredit 100-savol, javob – 1996.
7. Angilidi M. C. Bankovskii operatsii chast – 2 ucheto – ssudni operatsii I agentskih uslug bankov Padred 0.2 Lavrushina M. I. N. F. R – M 2009
9. Bankovskiy delo I finan sirovnii investitsiy – Tom 1-2 chast 6 usetirniy bank qod redaksiya N. Bruka 2005
10. Bozor iqtisod nazariyasini va amaliyoti
11. Vahobov A. V. Ibrohimov A. T. Moliyaviy tahlil. Darslik. Toshkent sharq – 2009
12. Pardaev M. Moliyaviy tahlil Toshkent – 2009

13. Dodoboev Yu Bank ishi Fan – 2002
14. Chjen V. A. Pul va moliya bozorlari 1996

Qoshimcha adabiyotlar.

1. Bozor pul va kredit jurnali 2001-2004
2. P`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali 2001-2004

Internet tarmog`i.

1. www.bankreferatov.ru
2. www.e.library.ru
3. www.softall.ru
4. www.money.ru
5. www.sredstva.ru
6. www.referat.ru

Ilovalar

1-Ilova.

Kredit sifati reytingi: raqamli sistema.

Reyting	Klassifikatsiya	Axvoli yoki tasvirlash
0	Klassifikatsiya qilinmagan	Kredit hali baholanmagan, yani baholash yoki qayta baholash vaqtida bulganda
1	Eng yaxshi	Yuqori kredit reytingiga ega qarz oluvchi Juda yaxshi xizmat cazifalari, kuchli pul oqimi, a'lo daraja garov, qarz xarakteristikasi (maqsadi, muddati, tulash sxemasi, tarmogi) bilan malum
2	Yuqori sifatli	Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yaxshi, kreditga layoqatlik darajasi yuqori, garov mulki ishonchli, kreditning maqsadligi yaxshi
3	Qoniqarli	Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli qoniqarli, avvalgi qarzlarni tulagan, garov yaroqli, yangidan boshlangan kredit
4	Oxirgi	Qarz oluvchi zaif, garov yetarli darajada emas, qarz oluvchi kapitaliga nisbatan kredit juda katta, doimiy diqqat va kafolat kerak
5	Oxirgidan yomonroq	Qarzning qaytarilishiga shubha boq: qarzni qoplash uchun maxsus ixhlarni talab qiladigan halat, bank nazorati utkazilgach, shubhali turkumga ajratilgan

6	Talofot	Qarzni tulash kutilmaydi, qisman tulash mumkin bulsada, amaldagi kredit portfeliga qushilmagan
---	---------	--

2-Ilova

Kredit sifati reytingi: ballar sistemasi.

	A. Kredit maqsadi va mablagi.	Ballar
1.	Maqsadi puxta uylangan va mablag hamma munosabatlarda Tuliq tugriligi isbotlangan.	20
2.	Maqsadi shubhali, mablag yaroqli	15
3.	Maqsadi ishonchsiz, mablag muammoli	8
	B. Kreditga talabgorning moliyaviy ahvoli	
1.	Avvalgi va hozirgi moliyaviy ahvoli juda kuchli, pul kelishi kuchli va barqaror	40
2.	Moliyzviy ahvoli yaxshi pul oqimi kuchli	30
3.	Moliyaviy ahvoli yaroqli, pul oqimi uzgaruvchan	20
4.	Avvalgi foydasi past, pul oqimi kuchsiz	10
5.	Yaqinda kup yuqotgan, pul oqimi kuchsiz	4
	C. Garov	
1.	Garov kerak emas yoki katta pul garovga beriladi	30
2.	Muhim likvidli garov	25
3.	Yaroqli likvidli yetarli darajadagi garov	20
4.	Cheklangan likvidli yetarli darajagi garov	15
5.	Past sifatli garovning yetarli emasligi	8
6.	Yaroqli garov yuq	2
	D. Tulash muddati va sxemasi.	
1.	Qisqa muddatli, ikkilamchi tulash manbai yaxshi	30

2.	Urta muddatli, qismlarga bulib tulash, kuchli pul oqimi	25
3.	Urta muddatli bir martada tulash	20
4.	Uzoq muddatli, qismlarga bulib tulash, kelib tushushudan ishonchsizlik.	12
5.	Uzoq muddatli maqsadi shubhali, ikkilamchi manbalari yuq	5
	Qarz oluvchi uchun kredit axborot	
1.	Qarz oluvchi bilan avvalgi munosabatlari juda yaxshi	25
2.	Ishonchli mablaglari, yaxshi kredit mulohazalari	20
3.	Mulohazalar chegaralangan, yomon axborotlar yuq	15
4.	Mulohazalar yuq	9
5.	Yomon mulohazalar	0
	F. qarz oluvchi bilan uzaro munosabat	
1.	Doimo foydali munosabatlar mavjud	10
2.	Urtacha munosabatlar mavjud	4
3.	Qarz oluvchi bilan munosabatida bank talofat kuradi	2
	G. Kredit bahosi	
1.	Bunday sifatli kredit uchun odatdagidan yuqori	8
2.	Kredit sifati mos	5
3.	Bunday sifatli kredit uchun odatdagidan past	0

3-Ilova

Umumiy ballar yigindisi asosida kredit reytingi

I.	Eng yaxshi	163-140
II.	Yuqori sifatli	139-118
III.	Qoniqarli	117-85
IV.	oxirgi	84-65
V.	Oxirgidan yomonroq	64 va past

4-Ilova

Kredit sifati reytingi:

Moliyaviy koeffisientlar tahlili (Firmalar).

Summa va Koeff-t	Sinf 1	Sinf 2	Sinf 3	Sinf 4	Sinf 5	Sinf 6
Umumiy kapital	500mln	150mln	85mln	50mln	25mln	-
Joriy likvidlik koeff-ti	2.00	2.00	2.00	1.50	1.50	1.25
Uzoq muddatli qarz(capital)	0.25	0.33	0.35	0.45	0.50	0.60
Uzoq muddatli qarz(aksionerlik capital)	0.66	1.00	1.00	1.25	1.75	2.00
Soliqdan oldin foizlarni qoplash	7.00	5.00	5.00	4.00	3.00	2.00
Pul oqimi (uzoq muddatli qarz)	0.75	0.30	0.25	0.2	0.2	0.15
Uzoq muddatli qarz (asosiy aktivlar)	0.50	0.70	0.80	1.00	1.50	1.50
Aylanma mablaglar (uzoq muddatli qarz)	1.00	0.80	0.80	0.75	0.50	0.40

Mojpzlar reutingi sifatlarini tasvirlash.

1-sinf. Eng yuqori sifatli mijozlar. Pul oqimi barqaror.

2-sinf. Yuqori sifatli mijozlar. Muqobil moliyz bozoriga kirish. 1-sinf mijozlariga nisbatan biroz chegaralangan, pul oqimi katta.

3-sinf. Urtacha yuqori sifatli mijozlar. Iqtisodiy nobarqarorlik vaqtida muqobil moliyz bozoriga chiqishi chegaralangan. Pul oqimi katta, lekin iqtisodiy pasayish vaqtida pasayishi mumkin.

4-sinf. Urtacha sifatli mijozlar. Faqat qulay iqtisodiy sharoitda muqobil bozorga kirish mumkin. Pul oqimi iqtisodiy pasayish vaqtida kuchsizlanishi mumkin.

5-sinf. Urtacha past darajadagi mijozlar. Qulay iqtisodiy sharoitlarda ham muqobil bozorga kirish chegarlangan. Pul oqimi katta tebranishlarga uchraydi.

6-sinf. Yuqori xatarli mijozlar. Kupgina hollarda qarzlarning qaytarilishi bir qism aktivlarni likvidligi bilan bogliq buladi. Pul oqimi chegarlangan. Kredit asosan ta'minot asosida taqdim etiladi.

R-sinf. Yomon sifatli kreditga ega mijozlar.

6- Ilova

Bank operatsiyalarini sugurtalash.

